

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI
“IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT” YO‘NALISHI
IV-bosqich talabasi**

Saidisaqova Laziza Saidakramovna

Ilmiy rahbar:

B.Bo‘ranov

**MUSTAQIL O‘ZBEKISTONING IJTIMOIY HIMOYA SIYOSATI: GENEZISI,
EVOLYUTSIYASI, AMALIYOT.**

REJA

KIRISH

1. BOB. Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy himoyaning tutgan o'ri: ijtimoiy genezisi, falsafiy tasnifi

1.1. Ijtimoiy himoyaning falsafiy tasnifi va genezisi.

1.2. Ijtimoiy yordam tushunchasi. Ijtimoiy yordam tatbiq qilinadigan aholi toifasi

1.3. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari

2.BOB. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoyaning davlat siyosati darajasida tutgan o'ri.

2.1. Davlat pensiyalarining turlari.

2.2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar-Ijtimoiy himoya turi sifatida.

2.3. Byudjet hisobidan to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar.

XULOSA.

Foydalangan adabiyotlar.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi.

“O‘zbekistonimiz bugungi kunda jahondagi kamdan-kam davlatlar qatorida yuksak, barqaror sur‘atlar bilan o‘tib, odamlarning kundalik turmushi, hayoti har tomonlama obod va farovon bo‘lib bormoqda”¹.

Xalqimizning farovon turmush kechirishi dalatimiz olib borayotgan adolatli siyosatning natijasidir. Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq ishlab chiqilgan rivojlanishning besh tamoyili mustahkam dastur bo‘lib xizmat qildi. Unda kuchli ijtimoiy siyosat tamoyii mustaqillik jarayonida xalqimizning ijtimoiy muhofaza muxtoj qatlami manfaatlarini himoya quroli hisoblandi.

Prezidentimiz, -"Bugungi kunda Konstitutsiyamiz muhrlab qo‘ygan tamoyillarni amalga oshirish yo‘lidan dadil qadamlar qo‘yib borayotganimiz, davlat qurilishi, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda biz amalga oshirayotgan keng ko‘lamli islohotlar va demokratik yangilanishlar, axoli turmush darajasi va sifatining jadal o‘tib, yurtimiz qiyofasi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni butunlay o‘zgarib borayotgani barchamizga katta g‘urur va iftixor bag‘shlaydi deb ko‘rsatib o‘tdilar . Mavzuning dolzarbligi ham ana shu mustaqillik jarayonida ijtimoiy himoya ilmiy taxlil etilayotganidir.

Bitiruv malakaviy ishining o‘rganilish darajasi,

O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatga oid qarashlar, mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilish, aholining moddiy va ma‘naviy tomondan qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy kafolatlar tizimi va uni tashkil qilish borasidagi yutuq va muammolarni tadqiq qilishga doir qarashlar mustaqillikning ilk yillarida paydo bo‘la boshladi. Jumladan, Abdurahmonov, T.Ergashev, R. Ismatov, A.Gofurov, I.Ergashev² kabi olimlar va tadqiqotchilar O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy

¹ Karimov I.A. Tinchlik va ahillik-mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir //O‘zbekiston ovozi, 2014 yil 10 may.

²Abdurahmonov tahriri ostida Mehnat va iqtisod sotsiologiyasi. T.: 2001, 32-bet; Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O‘qituvchi», 2002, 111-bet; Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet; Gofurov A. Iqtisodiy nazariya. O‘quv qo‘llanma. FarDU, 1995, 18-bet; Ergashev.I. “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”. -Toshkent. 2005, 36-bet; Mehnat va kasb ssiologyasi fanidan ma‘ruzalar matni. N.: 2010, 69-bet; O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O‘zbekiton», 2008, 10-bet; Xolbekov

kafolatlarni shakllantirishning vazifalari, hususiyatlari, undagi muammo va yechimlarni yoritishga harakat qilganlar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'zga xos yo'li», «Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida», «Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi», «Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida», «O'zbekiston buyuk kelajak sari», «O'zbekiston XX asrga intilmoqda», «Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi demokratik davlat qurishda jamiyatdagi yordamga muhtoj qatlam vakillarini ijtimoiy himoya qilish va aholi turmush darajasini yaxshilashga hizmat qiluvchi ijtimoiy siyosatning o'rni beqiyos ekanligini ochib berishga qaratilgan.

Ushbu maqsadga ko'ra quyidagilarni yoritish belgilandi:

- Ijtimoiy himoyaning falsafiy tasnifi va genezisi.
- Ijtimoiy himoyaning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy-ma'naviy manbalarimizda ijtimoiy himoyaning yoritilishi.
- O'zbekiston Respublikasi mustaqillik jarayonida ijtimoiy himoyaning tutgan o'rni.
- Kuchli ijtimoiy himoyaning davlat taraqqiyotidagi o'rni.

Bitiruv malakaviy ishimizning ob'ekti va predmeti

A., Idirov U. Sotsiologiya. Lug'at. - T.: Ibn Sino, 1999, 24-bet; O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2004, 289-290-moddalar, 139-bet ;

- Ijtimoiy himoya qilish tushunchasining tarixiy va nazariy asoslarini o'rganish;
- O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning bugungi kundagi ahamiyati va salmog'ini o'rganish hamda hayotga tadbiq qilish ;
- Pensiya tizimi, uni to'lash usullari bo'yicha qayta ishlab chiqilgan yo'l-yo'riqlar, nafaqa turlarining takomillashgan ko'rinishlarini o'rganib tahlil qilish;
- Ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqa pullari hamda imtiyozlar, hayriya tashkilotlarining salmog'ini ko'paytirish borasida yangiliklardir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asosi

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi Sharq allomalari, iqtisodshunos, sotsiolog olimlarning ilmiy izlanishlari va Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimovning mavzuning dolzarbligini tasdiqlovchi fikr va qarashlari, yozgan asarlaridan kelib chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.

Kelgusida ijtimoiy madaniy sohada faoliyat yuritish jarayonida ahamiyati salmoqli deb hisoblanadi

1. BOB. Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy himoyaning tutgan o'rni: ijtimoiy genezisi, falsafiy tasnifi

1.1. Ijtimoiy himoyaning falsafiy tasnifi va genezisi.

“Ko’pni ko’rgan xalqimiz yaxshi biladi, faqat tinchlik va osoyishtalik bo’lgan, mehr-oqibat, o’zaro hurmat hukm surayotgan davlatda, jamiyatda farovon va baxtli hayot qurish mumkin, eng ezgu orzu-maqсадlarga yetish mumkin”³.

Ijtimoiy himoyaning falsafiy tasnifi va genezisi xalqimis tarixi bilan hamnafaddir.

Ijtimoiy ximoya genezisi xalqimizning qadimdan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga bo’lgan e’tibori bilan ijtimoiy ximoya genezisi xalqimizning qadimdan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga bo’lgan e’tibori bilan belgilanadi.

qadimgi davr diniy-falsafiy, huquqiy ta’limot sifatida "Avesto" xalq va arkoni davlat uchun siesiy va huquqiy tafakkur mezoni hamda amaliyot uchun manba bo’lib hizmat qilgan. Zardo’sht bu ta’limotda qabilalarni birlashtirib, xalqlarni chet zulmlaridan xalos qilish hamda farovon hayot kechirish mumkin deb hisoblagan. "Avesto"da xalqimiz tarixining eng qadimiy davrlaridagi hayoti, turmush tarzi, axloqiy qoidalari, urf-odatlar, diniy e’tiqodi, dehqonchilik kasb-kori va boshqa xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlari to’g’risidagi ma’lumotlar berilgan. SHuningdek, dastlab aynan shu kitobda inson va u bilan bog’liq huquqiy muammolar hamda jamiyat a’zolarining haq-huquqlari tilga olingan.

"Avesto"da bayon etilgan ma’lumotlarning eng qadimgi qismlari mil.av. 2000 yilning oxirlari, 1000 yilning (ya’ni mil.av. 10-a) boshlariga oid. Bu qismlar Gatlar va Yasht nomlari bilan ma’lum. So’nggi asrlarda, bu qismlarga turli diniy urf-odatlar, axloqiy va huquqiy qonun-qoidalar qushilib borgan.

O’ziga xos qomusiy bilimlar majmuasi bo’lgan "Avesto"ning faqat Yasna, Yashta, Visparad, Vendidat nomlari bilan ma’lum bo’lgan qismlari bizgacha etib kelgan. Vendidat aslida qonunnoma bo’lib, 22 bobdan iborat. Bu Zaratushtra bilan Ahura Mazda o’rtasida musoqaba shaklida berilgan. Ahura Mazda insonning ma’naviy jihatdan pok bo’lishini, yaxshilikka va ez-gulikka amal qilishini talab

³ Karimov I.A. Tinchlik va ahillik-mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir //O’zbekiston ovozi, 2014 yil 10 may.

etadi. Ezgulik va baxt-saodatga erishish yulida halol mehnat qilish, adolat va haqgo'ylik, istiqboli porloq hayotga erishish Ahura Mazda ta'limotining asosiy qoyasidir.

"Avesto"ga ko'ra, insonning asosiy burchi haqqoniy hayot tarzi bo'lishi kerak. SHuning uchun ham "haqiqat oliy sharofatdir" deyiladi. Inson yaxshilikka hamkorlik qilishda hamisha "Yaxshi fikr" aytmog'i, "Yaxshi ish qilmog'i" lozim. Bu yuksak insoniy fazilat va sifat inson manfaatini hurmat qilishga yaratilgandir. Ozgu fikrat, Ozgu kalom, Ozgu amal - Zardo'shtiylik axloqining asosiy uchligi qoidasidir. Zardo'shtiy butun hayoti davomida ushbu uchlikni o'zida mujassam etmog'i kerak bo'lgan. Ana shundagina qalbi pokiza, ruhi madadkor, tafakkuri sog'lom bo'ladi. Ozgu fikrat - bu niyatning yaxshilik kishilar baxt-saodati uchun yovuzlikka qarshi ko'rashga hozirlik ruhidagi o'y-fikr, barcha bilan tinch-totuv yashashga intilishdir. Ozgu fikr egasi jaholatga tushmaydi, chunki jaholatda kishi ezgu niyatlarini yo'qotadi, burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi.

Zardo'shtiylikda. to'g'rilik, poklik, halollik inson yashash tarzining axloqiy qoidalar mezonini bo'lgan. Bu mezonlar "Avesto"ning tub mazmunini tashkil etadi.

SHuningdek, "Avesto"da insoniy burch faqat axloqiy yo'riqlarning o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki inson oila va farzand to'g'risida ham o'ylashi zarurligi ta'kidlanadi. Jamiyatning asosi oila bo'lgan. Oila boshligi "nmanapati" shaklida berilgan. Oilaning tarkibini: oila boshlig'i nmanapati, uning xotini nmanapatni va farzandlari tashkil etgan. Zardo'shtiylikda, oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Bunda, o'zaro qarindoshlarning oila qurishi man etilgan. qavm va urug' qonini toza, avlodini benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligiga qayd etilgan, bir yula 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi. Bu esa, ijtimoiy ta'minot huquqining shu davrda ham amalda bo'lganligini bildiradi.

"Avesto"da jamiyat iqtisodiy asosini urug' jamoasi tashkil etgan. Urug' jamoasi ijtimoiy-siyosiy, huquqiy vazifalarni hal qilish vakolatiga ega bo'lgan. Mulkiy munosabatlarda esa, mulk vis (urug')ga qarashli bo'lgan. Visga kamida 15

ta bir-birlariga qarindosh oila kirgan. Jamoani boshharish harbiy demokratiya prindiplariga asoslangan. Jamoa tasarru-fida nikoh munosabatlari, garovga turish masalalari xal etilgan. Vis (urug') tepasida vispati (urug' boshlig'i) turgan. U nmanapatilar (oilal boshlig'i) ichidan erkin saylab olingan. Demak, saylov huquqi amalda bo'lgan.

"Avesto"da tabiatni muhofaza qilish muammosi huquqiy jixatdan xal etilgan. Olov, er, suv va xavo muqaddas hisoblangan. Uni iflos qilish katta gunoh bo'lgan. SHu bois Zardo'shtiylik inson butun hayoti davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunedagi jamiyki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir, deb ta'lim beradi.

"Avesto"da faqirlarga mehribonlik g'oyasi ustun turadi. Unga ko'ra, har bir inson kishiga isnod kel-tiradigan ishlardan tiyilishi kerak. Samimiyat, xolislik, o'zaro hurmat kabi qadriyatlar insonlar o'rta-sidagi ustuvor axloqiy qoidalarga aylanishi kerak. harazgo'ylik, manmanlik, fitna-fasod "Avesto"da qattiq qoralanib, yaxshi xyvonlarni o'ldirish, zinoga berilish katta gunoh hisoblanadi.

SHunday qilib "Avesto" odamlarning odob-axloq me'rlarini tizimga soldi. U jamoaning har bir a'zosi bajarishi shart bo'lgan qoidalarni belgilab berdi. Mehnat va ilm uyg'unlashgandagina inson fa-rovon yashashi mumkinligi g'oyasi ilgari surildi. Yaxshi niyat, yaxshi amal inson hayotining mazmunini tashkil etmog'i zarurligi uqtirildi. Ana shu umuminsoniy qadriyatlar majmuasi o'sha davrdagi ajdodlarimiz tafakkurining asosini tashkil etardi.

Qur'onda inson aziz va mukarram, barcha mavjudotlarning zarrin toji va fazilatlar egasi sifatida e'zozlanadi. Ularning insoniy haq-huquqlarini hurmat qilish g'oyasi etakchilik qiladi. Bu haq-huquqlarni islom ulamolari o'ntaga ajratishadi. SHular jumlasiga: ota-onaning haq-huquqlari, farzandlarning ota-onalardagi haq-huquqlari, qarindoshlar-ning haq-huquqlari, er-xotinning haq-huquqlari, hokimiyat va ra'iyatning haq-huquqlari, qo'shnilarning haq-huquqlari, musulmonlarning haq-huquqlari kiradi.

Qur'oni Karimda ota-ona haq-huquqlari uta mas'uliyatli hisoblanadi. CHunki ota-onalik huquqini qozonish uchun bola tuqilishining o'zi kifoya qilmay, balki

ularga ta'lim-tarbiya berish eng muhim shartlardan biridir. Farzandga odob-axloq urgatish, uni kasb-hunarli qilib tarbiyalash, balog'atga etgandan keyin ug'il bola bo'lsa o'ylantirish, qiz bola bo'lsa turmushga chiharish, ularni moddiy va ma'naviy ta'minlab turish kabi sermashaqqat vazifalar ham ota-onalar zimmasidadir.

SHuningdek, islom shariatida farzandlarning ham vazifalari ko'rsatilgan. Farzandlar o'z ota-onalariga yaxshi muomalada bo'lishi, moddiy yordam berishi, minnat qilmay izzat-hurmat ko'rsatishlari ham harz, ham farz hisoblanadi. Bu xususda, Qur'oni Karimda shunday deyiladi: "Parvardigoringiz, yolg'iz uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga etsalar, ularga harab "uf" tortma va ularning (so'zlarini) qaytarma! Ularga doimo yaxshi so'z ayt...!" (Al-Isro surasi, 23-oyat). Bu ta'limotga binoan farzand ota-onaga nisbatan hurmat saqlashi va haqlariga duolar qilishi lozim.

Qur'onda, qarindoshlarning bir-birlariga nisbatan haq-huquqlari zikr qilinib: "Yaqin qarindoshlarning haqini ado qil" deya marhamat qilingan. O'zining ya'in va uzoq qarindoshlari qolidan habardor bo'lib turadigan, agar bemorlari, keksalari bo'lsa yordam beradigan kishigina haqiqiy musulmon hisoblanadi. Darhaqiqat, qarindosh-urug'lar o'rtasida bir-birlariga nisbatan rahm-shafqat rishtalari mavjud bo'lsa, butun jamiyat ichida ham shunday rishtalar rivoj topadi. Natijada oradan shafqatsizlik, xudbinlik, zulm va takobirlik yo'qoladi. Demak, qarindosh-urug'lar bir-birlarining haq-huquqlarini hurmat qilsalar, jamiyat muhiti sog'lom bo'ladi. CHunki, jamiyat oilalar, qarindosh-urug'lardan tashkil topadi.

Qur'onda oila erkin, ixtieriy nikoh asosida yuzaga keladi. Oilaning mustahkamligi er-xotin o'rtasidagi o'zaro izzat-hurmat bilan belgilanadi. Oilada, er-xotin ma'lum huquq va burchlarga ega bo'ladi. Er kishi o'z oilasi to'g'risida muttasil qayg'urishi, oilaning birligi va uning moddiy-ma'naviy ta'minoti uchun mas'uddir. Ana shu nuqtai nazardan er oila boshlig'i hisoblanadi. Er kishining o'z mablag'larini, diqqat-e'tiborini va muxabbatini o'z uyidan tashhariga haratishini

islom qat'iy man etadi. Xotinning erdagi haqlari borasida ham Qur'oni Karim oyatlarida ko'rsatilgan. Oyatda: "Ayolning qancha vazifalari bo'lsa shuncha haqlari ham bordir" deyilgan. Xotinning erdagi haqlari bu - ovqat va taom bilan ta'minlash, o'z qarindosh-urug'larini ko'rishdagi ayolning haqiga rioya qilish, xotinning qo'lidan kelmaydigan ishlarni buyurmaslik va boshxalar. Erning ayoldagi huquqlari esa, xotinning o'y-ro'zgor yumushlari va farzand tarbiyasi kabi ishlarda itoat etishligi, ayol kishi o'z erining moli va obro'sini saqlashi, hurmat qilishi kabilardir. SHuni aytib utish kerak-ki, oilaning mustaxkamligi er-xotinning o'z haq-huquqlarini yaxshi ado etishidadir.

Xalq va millat ichidagi tinch-totuvlikni ta'minlashda qushnilar, ya'ni oilalar o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega. SHu bois, Qur'oni karimda ham qushnilarning haq-huquqlariga e'tibor berilgan. qushnilarning o'zaro haq-huquqlari bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari xoh moddiy, xoh ma'naviy tomondan bir-birlariga yordam berishlaridir. qo'shniga ezgulik qilishdan maqsad yordam so'rasa yordam berish, kasal bo'lsa holiga yarash, xursandchilik vaqtida tabriklash, musibat etsa hamdardlik va shu kabilardir. Bu borada payhambar alayhissalom o'z hadisi shariflarida "Kimki Allohga va qiyomat kuniga imyon keltirgan bo'lsa, o'z qo'shnisiga yaxshilik qilsin" dedilar. Bu hadisdan ma'lum bo'ladiki, go'shniga yomonlik qilish Allohga va qiyomat kuniga ishonmaslik kabi o'ta og'ir gunoh hisoblanar ekan. Demak, qushnilarning haq-huquqlari shu darajada yuksaklikka ko'tarilgan.

"Temur tuzuklari"da oddiy fuharolarning huquqiy manfaatlari himoya qilingan. "Agar (har er va elning) amaldorlari va kalontorlari oddiy fuharoga jabr-zulm qilsa va shu orxali bechoralarga zarar etkazgan bo'lsa (bunday vaqtlarda) etkazilgan zararni kalontorlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar" deyiladi "TUZUKLAR"DA.

Amir Temur darvesh, faqir va miskinlarni o'ziga yaqin tutdi, ularning ko'nglini og'ritmadi va biron-bir talablarini rad etmadi. U qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildi, kambaxallarga nafaqa berib turdi.

"Tuzuklar"da savdogar, dehqon, kasb-hunar va ma`rifat a?llarining huquqlari ham himoya qilinadi. Dehqonlar xususida va ularni himoya qilish yuzasidan ham ayrim ko'rsatmalar berilgan. "Dehqonlar ra'iyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishiga ?urbi etmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuharodan birining o'y imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berib, unga yordam berilsin". Demak, davlat o'z fuharolarining manfaatini to'la qanoatlantirishga ham alohida e`tibor bergan ekan.

Amir Temur fuharolarning ta`lim olishini yaxshilash choralari ham ko'rgan. Bu haqda "Tuzuklar"da shunday deyiladi: "Musulmonlarga diniy masalalardan ta`lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqfdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim". Darhaqiqat, Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi edi. Tsmuriylar davri renessansi (madaniy o'yg'onish) hodisasiga ayni hazrati Sohibqiron tomonidan poydevor quyilgan.

"Tuzuklar"da fuharolarning sha`ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga e`tibor berilgan. Bunga ko'ra "birorta ham askarning doimiy turishi uchun shaxsiy kishilar o'yini egallashga yoki fuharolarning molini va boyligini o'zlashtirib olishga xaqqi yo'q edi".

1.2. Ijtimoiy yordam tushunchasi. Ijtimoiy yordam tatbiq qilinadigan aholi toifasi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquqlari mustahkamlab va kafolatlab qo'yilgan. Jumladan, Konstitutsiyamizning 39-moddasida shunday deyiladi: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda va boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam turlarining boshqa turlari rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas⁴»

Mustaqillik munosabati bilan respublikamizda ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotning mazmun va mohiyati tubdan o'zgardi. Ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy larzalardan ishonchli tarzda himoyalash va kafolatlash zarur. Aholini davlat himoyasiga muhtoj bo'lgan qatlami ko'p bolali oilalarni, qariyalar, nogironlar, boquvchisidan mahrum bo'lganlarning ahvoli bozor munosabatlarga o'tish davrida narx-navoning oshishi, pulning qadrsizlanishi bilan tirikchiligi qiyinlashib qoladi. «Ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari — keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo'lgan kafolotli huquqlarini ta'minlashdir⁵». Hozirgi davrdagi asosiy maqsad bo'lib hisoblangan davlatning asosiy vazifasi kishilar boshiga ochlik va muhtojlik tushishiga yo'l qo'ymaslikdir. Har qanday davlat ham o'z aholisini himoya qila olsagina, u insonparvar davlat bo'la oladi.

Kishilarning ijtimoiy himoyalashning va huquqiy kafolotlashning kuchli va ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston — bozor munosabatlarga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida kuchli ijtimoiy siyosat- iqtisodiy o'zgartirishlarning ishonchli kafolati ekanligi va bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T: «O'zbekiston» NMIU, 2013- y.

⁵ Karimov I.A, «O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - T: O'zbekiston NMIU, 1992-y

o'tkazish kerakligi ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy tizim islohoti aholining, ayniqsa uning kambag'al qismini ijtimoiy himoyalash masalasi birinchi o'ringa qo'yildi.

Mustaqillikka erishgan vaqtimizdan boshlab, erishilgan ulkan yutuqlarimizdan biri bu bozor munosabatlarining qaror topayotganligi, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangicha demokratik tuzum, fuqarolik jamiyati rivojlanib borayotganligidir. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining bir qancha asarlarida ijtimoiy himoya tizimini yanada yaxshilash va mustahkamlash to'grisida o'z yo'nalishlarini belgilab berdi. O'tgan davr mobaynida ijtimoiy ta'minot sohasida ulkan o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Hukumat qarorlari va Prezidentimiz tomonidan chiqarilgan «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalarning miqdorlarini oshirib borish to'g'risida»gi farmonlari kuchli ijtimoiy himoya mexanizmining o'zgaruvchan sharoitga mos bo'lishi uchun kuchaytirib borish tadbirlarini o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi davlatimizning kuchli ijtimoiy himoya siyosatiga amal qilgan holda, «O'zbekiston Respublikasi aholisining 2010-yilgacha davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoyasi yagona tizimini yaratish konsepsiyasi»ni ishlab chiqdi.

Bu konsepsiyada davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun yagona yo'l ishlab chiqish va turli davlat idoralari va jamoat tashkilotlarini kuchlarini birlashtirish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Unda ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirish, bu muammolarni faqat davlat mablag'lari hisobiga hal qilmay, balki xayriya va jamoat mablag'larini ham jalb qilish zarurligi kabi qoidalar asosiy o'rin olgan.

Aholini ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy ta'minot organlari bilan birga Mehnat, Moliya, Sog'liqni saqlash, Aloqa vazirliklari, Pensiya Jamg'armasiga hamda jamoat tashkilotlari bo'lgan Ko'zi ojizlar, Kar-soqovlar, Nogironlar, Qizil Yarimoy jamiyatlari, «Mehribonlik», «Bolalar», «Navro'z», «Sog'lom avlod uchun» kabi xayriyajamg'armalariga ham yuklatilgandir. Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo'llanish asoslarini tubdan

o'zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag' miqdori jihatidan pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o'rinni egallaydi.

1993-yil 3-sentabrda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinib, 1994-yil 1-iyuldan respublika hududida kuchga kirdi.

Qonunga asosan, faqat ish staji mavjud bo'lgan shaxslargagina pensiyalar tayinlanishi belgilangan. Bu pensiyalar yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining Oliy Majlisning 1999-yil aprelda so'zlagan nutqida kelgusida ijtimoiy himoyani aniq toifa kishilariga qaratilishini kuchaytirish kerakligi haqida gapirib o'tdi. Bundan shu xulosa kelib chiqadiki, ijtimoiy ta'minot tizimida qo'llanilayotgan hozirgi qonunlarimizni ham qaytadan ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunda belgilangan pensiya yoshi Xalqaro Mehnat Tashkilotining «Nogironlik, qarilik va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar to'g'risida»gi Konvensiyada ko'zda tutilganidan 5 va 10 yil kamdir.

Bundan tashqari ish sharoiti zararli va og'ir bo'lgan xodimlar, teatr, sirk va boshqa tomosha muassasalarining artistlari, aviatsiya, maorif, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, urush nogironlari, ko'p bolali onalar va boshqa ayrim toifaga tegishli fuqarolar yoshga doir pensiyani bundan ham ilgariroq olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensiya haqidagi qonunni ishlab chiqishda pensiya yoshini oshirish, imtiyozli pensiyalar turlarini kamaytirish zarur. Chunki hozirgi belgilangan pensiya yoshidagi kishilar mehnatga layoqatli hisoblanib, yana bir necha yil bemalol o'z ishlarini davom ettirishlari mumkin. Pensiyaga chiqqandan keyin ishlayotgan pensionerlar buning yaqqol dalilidir.

Agar pensiya yoshi uzaytirilsa, ayrim imtiyozli pensiyalar qisqartirilsa, sarflanayotgan mablag'larni tejab qolishga, kelgusi yillarda o'sib kelishi ehtimoli

tugʻilgan pensionerlarni hamda aholini haqiqatdan ham muhtoj boʻlgan qatlamini ijtimoiy himoyalashning kuchli va taʼsirchan mexanizmi yaratiladi.

«Aholini ijtimoiy himoyalashning amaldagi mexanizmini tanqidiy baholash va mustahkamlash, uning aniq toifadagi kishilarga qaratilishini kuchaytirish lozim boʻladi. Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qoʻllab quvvatlash hajmi va miqdorini koʻpaytirish bilan bir vaqtda haqiqatda yordamga muhtoj boʻlgan kishilar va oilalargina ijtimoiy yordam olishlari mumkin.

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimida yolgʻiz qariyalar, pensionerlar va huzuridagi nogironlarning talablari va ehtiyojlariga alohida eʼtibor berish lozim boʻladi⁶. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi «Aholini aniq yoʻnaltirilgan ijtimoiy madad bilan taʼminlashda fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organlari rolini oshirish toʻgʻrisida»gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 -yil 7-dekabrda «2000- 2005-yillarda yolgʻiz keksalarning, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar Dasturi toʻgʻrisida»gi qarori va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006- yil 7-sentabrdagi 459-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2007-2010- yillarda yolgʻiz keksalar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat koʻrsatishni yanada kuchaytirish choratadbirlari » Dasturi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning pensiya taʼminoti tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida», 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrda «Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 12-fevralidagi 22-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan «Bandlikka koʻmaklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining namunaviy Nizomi» yuqoridagi soʻzlarning yorqin dalilidir.

⁶ Karimov I.A.. «Oʻzbekiston-bozor munosabatlariga oʻtishning oʻziga xos yoʻli». - T: «Oʻzbekiston» NMIU, 1992-y. 49-b.

Ushbu farmon va qarorlar aholini ijtimoiy himoya qilishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini rolini oshirish, ijtimoiy muhofazaning muayyan shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlashda ularning ma'suliyatini yanada kuchaytirish maqsadida qabul qilingan.

Aholini muhofaza qilishning aniq shaxsga qaratilishini yaxshilash uchun turar joy muassasalari bolali oilalarga nafaqalar hamda yolg'iz o'zgalar parvarishiga muhtoj pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalarini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, yolg'iz keksalarni, pensioner va nogironlarni ijtimoiy ta'minot va uyjoy- maishiy sharoitlarni yaxshilash yuzasidan ehtiyojlarni qondirish masalalarini hal qilish uchun homiylar mablag'larini jalb qilish zarurligi belgilandi.

1.3. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari

Aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslangan holda boqimandalik va davlatning yalpisiga ijtimoiy ta'minlashidan aholining ijtimoiy yordamga haqiqatan ham muhtoj bo'lgan real zaif qatlamlarini (pensionerlar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar va b.) aniq yo'naltirilgan (manzilli) tarzda qo'llab-quvvatlashga o'tishga asoslangan holda yanada rivojlantirilishi lozim⁷.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida aholi turmush darajasini yaxshilash muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda aholini kuchli ijtimoiy himoyalash bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyilidan biri sifatida belgilangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moddiy jihatdan kam ta'minlangan aholi manfaatlarini ko'zlab, ularni davlat, korxona va tashkilotlar o'z zimmasiga oladi. Bu bozor munosabatlari tizimiga o'tish jarayonidagi eng muhim muammolardan biridir. Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki oqibatlari

⁷ Tursunov Y. Ijtimoiy ta'minot huquqi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). - T: «O'qituvchi» NMIU, 2005- y. B-6.

narx-navoning ko'tarilishi va ishsizlikning oshishidan iborat bo'ldi. Bundan birinchi navbatda aholining kambag'al va iqtisodiy jihatdan zaifroq tabaqalari ko'proq zarar ko'rdi. 90-yilga kelib O'zbekistonda jon boshiga eng past daromad to'g'ri keladigan kishilar soni umumiy aholining 45 foizini, ya'ni 9 millinodan ortiq kishini tashkil etgan edi⁸.

O'zbekiston mustaqillikni e'lon qilgan dastlabki davrdayoq ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishini jahonga ma'lum qildi va aholini ijtimoiy jihatdan har tomonlama qo'llab-quvvatlash tamoyili Prezidentimiz I. A. Karimov strategiyasining asosiy qoidalaridan biriga aylandi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqozosi edi, desak hato bo'lmaydi. Chunki respublikamiz Sobiq Ittifoq respublikalari ichida oxirgi o'rinlardan birida edi.

Aholining katta qismi, ayniqsa, qishloq aholisi jamiyatda rasman e'tirof etilgan qashshoqlik darajasida yashardi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1989 yilda jon boshiga hisoblanganda respublikadagi oilalarning 44 foizining pul daromadining rasman belgilangan eng kam ish haqidan ham oz edi.


Bunday sharoitda kuchli ijtimoiy kafolatni vujudga keltirmay turib, o'tkazilgan islohot barbod bo'lishi muqarrar edi. Bozor iqtisodiyotiga ziddiyatlarsiz, silliqqina o'tib bo'lmasligini oldindan ko'ra bilgan Respublika Prezidenti I. A. Karimov: «Jamiyatning sifat jihatdan yangi holatga o'tishida bizga islohot chog'ida odamlar moddiy ahvoli yomonlashadigan, o'tish davrining barcha qiyinchiliklari aholi yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas»⁹, - deb ta'kidlagan edi.

Quyida keltirilgan chizmada aholini ijtimoiy himoya qilishning O'zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan va yaqin kelajakda ham saqlanib qolajak yo'nalishlari keltirilgan.

Aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari

⁸ Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti

⁹ Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'zga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993, 73-bet.



1-chizma. Ijtimoiy himoya yo'nalishlarining tarkibiy qismlari¹⁰

Daromat siyosati haqida gap ketar ekan, avvalambor, totalitar tizim paytida shakllanib qolgan boqimandalikning har qanday ko'rinishlariga barham berish zarurligini ta'kidlab o'tish lozim. Ma'lumki, iqtisodiy tizimda daromadlar bir tekisda taqsimlanib, kishilarni iqtisodiy jihatdan baravarlashtirishga intilish yetakchi o'rinda turardi, boy bo'lish ta'qiqlanardi, daromadlar ma'lum miqdor bilan cheklanardi. Bunday sharoitda xalqimiz «davlat va hukumat, korxona va ho'jalik bor ekan, ular hammasini o'ylaydi va bizni kulfatda qoldirmaydi», deb o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis ishga solmasdan boqimandalik kayfiyatida yashab keldilar.

Bozor munosabatlari sharoitida olingan daromatlarni taqsimlash tenglikni emas, balki tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida tovar va xizmatlarni yaratishning o'sishi uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yuqori darajasi cheklanmagan bo'lib, ularni har bir insonning mehnat natijalari va sifatiga qarab taqsimlash tizimi hukmronlik qiladi.

Daromatning qobiliyat, bilim, malaka, mahorat va umuman, salohiyatga qarab taqsimlanishidan kelib chiqqan tengsizlik tabiatan adolatli hisoblanadi.

¹⁰ Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002, 112-bet.

Yaxshi ishlagan ishchi yoki xizmatchining ko'p daromad topishi tabiiy, chunki u hayotiy ne'matlarni ko'p va sifatli yaratgani uchun ularni ko'proq o'zlashtirishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat turli iste'mol mollari, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga dotatsiyalar o'rnatadi, ya'ni ularni haqiqiy bahosidan kamroq narxlarda sotishni nazarda tutadi. Bunday dotatsiyalar aholining muayyan qatlamlarini emas, balki barcha fuqarolarni ijtimoiy himoyalash maqsadida joriy etilib, davlat byudjetiga anchagina og'ir yuk hisoblanadi. Aholi daromadlari darajasida keskin tabaqalashuvga yo'l qo'ymaslik choralari davlatning diqqat markazida turuvchi masalalardan hisoblanadi¹¹. Shuni nazarda tutish kerakki, gap adolatsiz daromatlar to'g'risida borayapti. Katta daromad faqat halol va unumli ish natijasi evaziga bo'lishi kerak. Nopok yo'l bilan daromad topuvchilar davlat nazoratida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida birmuncha rivojlanib ketgan nopok daromad topish yo'llari bu tizim madaniylashib borgan sari tobora barham topib boradi va adolatli daromadlar salmog'i ortib boradi.

Daromad siyosati sohasida indeksatsiya muhim rol o'ynaydi. Aholi daromadini indeksatsiya qilish deganda, aholi buyumlari va xizmatlarning qimmatlashgan bir qismini yoki to'la qismini qoplash uchun fuqarolarning daromadini oshirish tushuniladi. Indeksatsiya bir yo'la beriladigan ish havi, nafaqa, stipendiya va boshqa turdagi daromadlarning darajalarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi. Jahon amaliyotida indeksatsiyaning avtomatik va yarim avtomatik usullari mavjud.

Indeksatsiyaning avtomatik usulida ish haqi baho indeksining o'sish sur'atiga munosib ravishda oshiriladi va aholi daromadining zarar ko'rgan qismi to'la qoplanadi. Ammo bu usul ish haqining samarali tashkil qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bunda ish haqining oshishi mehnat unumdorligi bilan bog'lanmagan holda amalga oshiriladi¹².

¹¹ Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet.

¹² Karimov I.A. Milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: O'zbekiston, 1996, 41-bet.

Yarim avtomatik usulda bahoning oshishini hisobga olgan holda ish haqini qanchaga oshirish uch tomon (davlat, kasaba uyushmasi va ishlovchilar) ishtirokida shartnoma tuzish yo'li bilan yechiladi.

Indeksatsiyani amalga oshirishda «iste'mol savatchasi» tarkibini aniqlash zaruriyati tug'iladi. Insonga zarur bo'lgan oziq-ovqat, sanoat mollari va xizmatlarning tirikchilik uchun kifoya qiladigan hajmi «iste'mol savatchasi» deb ataladi.

Aholining shunday qatlamlari borki, ular qanchalik faollik qilmasinlar, o'z daromadlarini oshira olmaydilar. Bular qatoriga nafaqaho'rlar, bolalikdan nogironlar, urush nogironlari, ishsizlar, ko'p bolali oilalar, mehnatda turli baxtsiz hodisalarda mayib bo'lgan fuqarolar kiradi.

Respublika mustaqilligi qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab hukumatimiz bu toifadagi aholiga alohida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega»¹³, _ deb ta'kidlanadi.

Nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoyalash maqsadida ularga beriladigan nafaqalar kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari bilan birga imtiyozlar va turli dotatsiyalar tarzidagi bevosita to'lovlar ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, nafaqaxo'rlardan soliq olinmaydi va ijtimoiy ahvoli e'tiborga olinib, ular oladigan nafaqaning mutlaq miqdori ish haqining eng kam miqdoridan ortiq bo'lishiga muttasil harakat qilinmoqda.

Respublikamizga nogironlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Nogironlar yer yuzidagi jami aholining 7,5 foizini tashkil qiladi. Mamlakatimizda esa bu ko'rsatkich 2,5 foiz atrofida. Ularning har biriga nafaqa va boshqa imtiyozlar Bilan bir qatorda o'rtacha 2-3 minimal ish haqi miqdorida yordam berib kelinmoqda.

¹³ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiton», 2013, 10-bet.

Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «nafaqa to'g'risida»gi, «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar ularning haq-huquqlarini qonun yo'li bilan himoya qilishga qaratilgandir. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, ularga davlat tomonidan madad berish tizimi muttasil takomillashtirib borilmoqda. 1994 yilning oktabr oyidan boshlab kam ta'minlangan oilalarga davlat nafaqasi joriy etildi. Bu nafaqa eng kam ish haqi miqdorining 1,5 - 3 baravariga tengdir.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan yordamni taqsimlash fuqarolarning mahalliy o'zni-o'zi boshqarish organlari - mahallalar zimmasiga yuklatilgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda istiqomat qiluvchi oilalarning 10-12 foizi nafaqa olmoqda.

Shunday qilib, mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashning noyob tizimi shakllandi va amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ijtimoiy himoyaning quyidagi yo'nalishlari ustivor hisoblanadi:

- _ islohotlarning birinchi bosqichida sog'liqni saqlash, maorif va madaniyat sohasida yaratilgan tizimni yanada rivojlantirish;

- _ davlat tomonidan sog'liqni saqlash muassasalarini dori-darmonlar, vaksinalar va boshqa tibbiy ashyolar bilan ta'minlash, kasallanish, o'lim va bolalar o'limi ko'payishining oldini olish;

- _ ijtimoiy sohani davrlat tomonidan pul bilan ta'minlashning kamayishiga yo'l qo'ymaslik, uni byudjetdan tashqari mablag'lar bilan ta'minlashning bozor mexanizmini yaratish;

- _ maorif va sog'liqni saqlash tizimida bozor o'zgarishlarini jadallashtirish va xodimlarning o'z mehnati natijalaridan moddiy manfaatdorligini yuksaltirish choralarini amalga oshirish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy soha - sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan, ayniqsa, mushkul ahvolga tushib qoladi. Shu sababli mamlakatimizda aynan shu

sohalarni ustivor darajada rivojlantirish, ularda ishlovchilarning mehnatiga munosib baho berish va ularni kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati amalga oshirilmoqda.

O'tgan 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz davomida mamlakatimiz erishayotgan natija va marralar haqidagi ko'rsatkichlar yurtimizda bo'layotgan mislsiz o'zgarishlar to'g'risida aniq tasavvur beradi.

Ana shu davrda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar o'sdi. Agarki mamlakatimiz aholisi ayni shu davrda qariyb 9,7 millionga ko'payib, bugungi kunda 30 million 500 mingga yaqin kishini tashkil etayotganini hisobga oladigan bo'lsak, axoli jon boshiga nisbatan o'sish 3 barobardan ziyodni tashkil etishi bizning naqadar ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizdan dalolat beradi.

Jahon miqyosida hali-beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yillik o'sishi 2008-2013 yillarda 8 foizdan oshdi, 2014 yilda esa bu ko'rsatkich 8,1 foizni tashkil etadi. Bunday o'sish sur'atlarini kamdan-kam davlatlarda kuzatish mumkin.

O'tgan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, davlat byudjetimizning profitsit bilan, ya'ni oshirib bajarilishi ta'minlanmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda axolining real yalpi daromadlari jon boshiga 8,2 barobar oshganining o'zi xalqimizning hayot darajasi tobora o'sib borayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonning tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16 foizdan oshmayapti, eksport va oltin-valyuta zaxiralarimiz hajmi ko'payib bormoqda.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar hisobida 162 milliarddan ortiq kapital mablag' o'zlashtirilgan bo'lib, buning 56 milliard dollardan ziyodi xorijiy investitsiyalardir.

Faq'atgina 2013 yilning o'zida kapital investitsiyalar hajmi dollar hisobida qariyb 14 milliardni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizni tashkil etadi.

Bularning barchasi avvalo iqtisodiyotimizdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlar natijasi, yangitdan ishga tushirilgan, jahon bozorida talab katta bo'lgan

raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yuzla6, minglab zamonaviy korxonalar demakdir.

Bu raqamlar avvalo yuzlab, minglab kilometr temir yo'llar va avtomobil' yo'llari, yuz minglab uy-joylar qurilgani, infratuzilma ob'ektlari bunyod etilgani, shahar va qishloqlarimiz qiyofasining tubdan o'zgarib, aholi farovonligi va hayot sifati oshib borayotganining dalilidir.

Bugun bir fikrni hech ikkilanmasdan, to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin: O'zbekiston tarixan qisqa muddatda iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, asosan paxta xomashyosi etkazib berishga moslashgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan qoloq respublikadan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy sanoat tarmoqiga ega bo'lgan, jadal taraqqiy etayotgan mamlakatga aylandi. Buning yaqqol tasdg'i - mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibida sanoatning ulushi 1990 yildagi 14,2 foiz o'rniga bugungi kunda 24,3 foizni tashkil etgani, ayni paytda qishloq xo'jaligining ulushi esa 34 foizdan 17 foizga kamayganidir¹⁴.

2.BOB. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy himoyaning davlat siyosati darajasida tutgan o'rni.

¹⁴ Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir //Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2013 yil 7 dekabr

2.1. Davlat pensiyalarining turlari.

Hozirgi sharoitda aholining ijtimoiy himoya turlari kengayib, uning qo'llanish asoslarini tubdan o'zgartirish talab qilinayotgan bir paytda xizmat ko'rsatilayotgan aholi soni va sarflanayotgan mablag' miqdori jihatidan pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalashda asosiy o'rinni egallaydi¹⁵. 1993-yil 3-sentabrda Oliy Majlis tomonidan O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun qabul qilinib, 1994-yil 1-iyuldan respublika hududida kuchga kirdi. Ushbu Qonun 9 ta bob, 67 ta moddadan iborat. Undagi moddalar davlat pensiyalarini 3 xil turiga bag'ishlangan va Qonun faqat ish staji bo'lgan shaxslargagina va ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash mumkinligini ko'zda tutadi. Qonunni qabul qilishda O'zbekiston Respublikasining demografik, geografik va iqlim sharoitlari va urf-odatlarini hisobga olingan. Bu xususiyatlar Qonunning ish stajini hisoblashga, imtiyozli pensiyalar tayinlashga doir boblarda o'z ifodasini topgan. Qonun respublika qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga moslashganini hisobga olib, qishloq xo'jalik xodimlarining ayrim toifalari paxtakor, sholikor, tamakikor ayollarga, cho'ponlarga, paxta suvchilariga umumiy pensiya yoshini besh yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya tayinlash mumkinligini belgilagan. Davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilangan:

- a) yoshga doir pensiya;
- b) nogironlik pensiyasi;
- d) boquvchini yo'qotganlik pensiyasi.

Har qanday davlat ham o'z aholisini himoya qila olsagina, u insonparvar davlat bo'la oladi. Kishilarning ijtimoiy himoyalashning va huquqiy kafolotlashning kuchli va ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolish mumkin. Kuchli ijtimoiy siyosat- iqtisodiy o'zgartirishlarning ishonchli kafolati ekanligi va bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazish kerakligi

¹⁵ Tojiboyeva O.A, Baratova N, G'aniyev Sh.H. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -128 b.

ta'kidlangan. Bu shuni anglatadiki, bozor munosabatlariga o'tish davridagi iqtisodiy tizim islohoti aholining, ayniqsa uning kambag'al qismini ijtimoiy himoyalash masalasi birinchi o'ringa qo'yildi¹⁶.

Yoshga doir pensiya shunday pensiyaki, u fuqaroning ma'lum yoshga yetganida, tegishli ish stajiga ega bo'lganida tayinlanadi. Shunday qilib, yosh va staj, ya'ni ikkita shart bu tur pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqni belgilab beradi. Bunda boshqa holatlar muhim ahamiyatga ega emas. Yoshga doir pensiya — bu ko'p yillik mehnatning mantiqiy samarasi hisoblanadi. Bunday pensiya olish huquqiga ega bo'lish uchun ishlash, xizmat qilish kerak albatta. Yoshga doir pensiya umumiy asoslarda — erkaklar 60 yoshga to'lganlarida va kamida 25 yillik ish stajiga ega bo'lganlarida, ayollar 55 yoshga to'lganlarida va kamida 20 yillik ish stajiga ega bo'lganlarida tayinlanadi¹⁷. **Nogironlik pensiyasi** mehnat qilish qobiliyati yo'qotilishi munosabati bilan belgilanadi, uning miqdori kasallikning sababi, nogironlik guruhiga va mehnat faoliyatining davomiyligi hamda o'rtacha bir oylik ish haqiga bog'liq bo'ladi.

Nogironlik pensiyasi nogironlik qachon boshlanganligidan qat'iy nazar: ish davridami, ishga kirgunga qadarmi, uni tugatganidan keyinmi qat'iy nazar tayinlanadi. Agar nogironlik mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi sababli boshlangan bo'lsa, u holda pensiya ishning davomiyligidan qat'iy nazar tayinlanadi. Nogironlik insonning mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan hollarda pensiya tayinlash uchun ish staji talab qilinadi, bunda ishning davomiyligi yoshga bog'liq bo'ladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga tayinlanadi. Uning miqdori boquvchi o'limining sababi, mehnat faoliyatining davomiyligi va ish haqiga bog'liq bo'ladi.

Yoshga doir pensiya tushunchasi va uning turlari o'zi ham turlarga bo'linadi.

¹⁶ Tojiboyeva O.A, Baratova N, G'aniyev Sh.H. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -128 b.

¹⁷ «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun. T., 2012 йил, 20-бет.

O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuniga asosan fuqarolar ma'lum bir yoshga yetib ish stajiga ega bo'lganlarida, pensiya tayinlanishi belgilab qo'yilgan. Yoshga doir pensiya respublikamizdagi keksa fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. «Yoshga doir pensiya» atamasi «Fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun kuchga kirgan vaqtdan boshlab kiritildi, 1994-yil 1-iyulgacha bo'lgan davrda bu pensiyani qarilik pensiyasi deb yuritilgan. Qonunimiz erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqishini ayrim hollarda 50 yosh, 45 yosh hatto 40 yoshdan ham pensiyaga chiqish mumkinligini ko'zda tutgani uchun bu yoshdagilarni qariya deb atash g'ayrioddiy tuyuladi. Chunki ilmiy tadqiqotlarga ko'ra 61 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan davrni keksayish davri deb aytish mumkin. Yoshga doir pensiya tayinlash fuqaroni qarilik yoshini emas, balki

mehnat qobiliyatini pasayishi yoki ayrim bir kasblar uchun mos kelmay qolishini hisobga olingan holda belgilanib, bu pensiyani olish uchun ayrim hollarda muayyan yoshga etish va ish stajini mavjudligi, alohida hollarda esa faqat ish stajini mavjudligiga asoslanib tayinlanishini ko'zda tutgan.

Yoshga doir pensiya deganda, asosan fuqaroning o'tgan davrdagi ish stajini, jamiyat rivojlanishiga qo'shgan hissasini hisobga olgan holda umrbod tayinlanadigan davlat ta'minotining turlaridan biridir. Yoshga doir pensiya tayinlashda pensiyaning miqdori fuqaroning ishlagan ish stajiga va olgan ish haqining miqdoriga bog'liq bo'ladi, ish staji va ish haqi miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, pensiya miqdori ham yuqori bo'ladi, lekin pensiyaning kam miqdori qonunda belgilab qo'yilgan miqdorlardan kam bo'lmasligi shart. Ayrim hollarda pensiya miqdori fuqaroning imtiyozlarga egaligi va davlat oldidagi xizmatlarini hisobga olinadigan bo'lsa, pensiyaga chiqishdan oldin olgan ish haqi miqdoridan

ham oshib ketishi mumkin. Amaldagi qonunchilikka asosan yoshga doir pensiyalar quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya;

2. Imtiyozli shartlar bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;

3. To'liqsiz ish staji bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;

4. Muddatidan ilgari tayinlanadigan yoshga doir pensiya.

Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya deganda, fuqarolar ma'lum yoshga (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga) to'lganlarida, ularning ish stajini hisobga olib (erkaklarda 25 yil, ayollarda 20 yil) beriladigan va har bir fuqaro yuqoridagi shartlar mavjud bo'lganida olishi mumkin bo'lgan pensiya tushuniladi.

Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlash uchun asosiy shartlar fuqaroning yoshi va ish stajining mavjudligidir. Ularning ish stajini qanday faoliyat bilan shug'ullanib yiqqanini va qanday kasb va lavozimda ishlaganini pensiya tayinlash uchun ahamiyati yo'qdir.

Imtiyozli yoshga doir pensiyalar 3 turga bo'linadi:

1. Yoshidan qat'iy nazar imtiyozli pensiya;

2. Umumiy pensiya yoshini 10 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya;

3. Umumiy pensiya yoshini 5 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiyalar.

Imtiyozli yoshga doir pensiya fuqarolarga ilgariroq tayinlanib, uni tayinlashdagi asosiy shart ma'lum kasblardagi ishlarda ish stajini mavjudligidadir. Bunday kasblar yer osti ishlari, mehnat sharoiti o'ta og'ir va o'ta zararliligi, o'z kasbiy faoliyatini ilgariroq yo'qotishi mumkinligi bilan boshqa kasblarda farqlanadi.

Imtiyozli yoshga doir pensiyalarni tayinlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli qarori bilan «Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1-, 2- va 3-ro'yhatlari» tasdiqlangan. Imtiyozli pensiyalarni tayinlashda ushbu ro'yhatlarga qat'iy amal qilinadi.

To'liqsiz ish staji bilan yoshga doir pensiya umumiy asoslardagi yoshga doir pensianing bir turi bo'lib, bu pensiya qonunning 7-moddasida ko'rsatilgan yoshga

yetgan fuqarolarga talab qilingan to'liq umumiy ish staji mavjud bo'lmagan hollarda tayinlanadi. Bu pensiyani tayinlash sharti, pensiya yoshiga yetish va oz bo'lsada ish stajining mavjudligidir. Yoshga doir pensiyalar muddatidan ilgari, agar xodim korxona, muassasa, tashkilotning tugatilishi yoki shtatlar qisqartirilishi munosabati bilan ishdan bo'shatilsa va boshqa ish topa olmagan uchun ishsizlik maqomi berilgan hollarda tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga asosan umumiy asoslarda yoshga doir pensiyalar quyidagi shartlar asosida tayinlanadi.

Erkaklar — 60 yoshga to'lganda, ish staji kamida 25 yil bo'lganida.

Ayollar — 55 yoshga to'lganida, ish staji kamida 20 yil bo'lganida.

Yoshga doir pensiya shunday pensiyaki, u fuqaroning ma'lum yoshga etishini va tegishli ish stajini mavjud bo'lishini zarurligini talab qilinadi. Yuqoridagi ikkita shart yosh va ish staji pensiya ta'minotiga zarur bo'lgan huquqni belgilab beradi, bu shartlardan biri mavjud bo'lmasa, fuqaro pensiyaga bo'lgan huquqini yo'qotadi.

Yoshga doir pensiya — bu fuqaroning ko'p yillik mehnatining ma'lum yoshga yetganida samarasi hisoblanib, pensiyaga chiqqanidan keyin dam olib, pensiya bilan ta'minlanishini kafolatlaydi. Har qanday pensiyaning miqdori pensiyaga murojaat qilgan fuqaroning pensiyaga murojaat qilishdan oldin olgan o'rtacha oylik ish haqiga, ish stajining muddatiga bog'liq bo'lib, quyidagilardan iborat:

— pensiyaning tayanch miqdori;

— pensiyani ortiqcha ish staji uchun oshirish;

— ustama haqlar.

Pensiyaning tayanch miqdori yoshga doir pensiyaning o'rtacha ish haqidan talab qilingan ish stajiga nisbatan hisoblab chiqarilgan qismi bo'lib, eng asosiy (tayanch) bo'lagidir. Pensiyaning tayanch qismi asosan murojaat qilgan shaxsning o'rtacha oylik ish haqiga bog'liq bo'ladi.

Pensiyani ish staji uchun oshirish, yoshga doir pensiya miqdorini ikkinchi bo'lagi bo'lib, uni olish huquqiga talab qilingandan ortiq ish staji mavjud bo'lgan hollardagina haqli bo'lish mumkin.

Ustama haqlar — pensiyaga fuqaroning ish staji va ish haqiga bogʻliq boʻlmasdan, balki ayrim bir imtiyozlarini hisobga olgan holda qoʻshib beriladi. Masalan: nogironligi, yolgʻizligi, urush ishtirokchiligi, alohida xizmatlari va boshqalar.

Yoshga doir pensiyalarning tayanch miqdorini hisoblab chiqarish Qonunning 26-moddasining «a»-bandiga asoslanib quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Pensiya miqdorini aniqlash uchun fuqaroning mehnat faoliyatining ohirgi 10 yildagi ketma-ket kelgan 5 yillik ish haqini 60 oyga boʻlish (31-modda) natijasida oʻrtacha 1 oylik ish haqi aniqlab olinadi. Bunda oʻrtacha oylik ish haqi miqdori kam boʻlganda yoki ish haqi haqida maʼlumotlar boʻlmaganda pensiyaning tayanch miqdori rasmiy belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan, agar oʻrtacha oylik ish haqi miqdori juda koʻp boʻlgan hollarda esa pensiya eng kam ish haqining 8 hissasidan koʻp boʻlmagan miqdordan aniqlanadi.

Pensiyaning tayanch miqdori oʻrtacha oylik ish haqining 55 foizi hisobidan aniqlanadi va har qanday holda ham rasmiy belgilangan ish haqining 100 foizidan kam boʻlmasligi shart. Hozirgi vaqda bu miqdor Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqa miqdorlarini oshirish toʻgʻrisida»gi Farmonda belgilangan eng kam yoshga doir pensiya miqdoridan kam boʻlmasligi kerak. Yoshga doir pensiyalar murojaat qilgan shaxsning Qonunning 7- moddasida talab qilingandan ortiqcha ish staji mavjud boʻlganida, har bir toʻliq ortiqcha 1 yil uchun pensiya hisoblab chiqarilgan ish haqining 1 foizi miqdorida Qonunning 27-moddasining «a»-bandiga asosan oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qoʻllab quvvatlashni kuchaytirish toʻgʻrisida»gi Farmoniga asosan Qonunning 27-moddasiga oʻzgartirish kiritilib, ortiqcha ish staji uchun belgilangan chegara olib tashlandi va ortiqcha ish staji qanchaligidan qatʼiy nazar barcha yillar uchun pensiya hisoblab chiqarilgan ish haqining tegishli foizini qoʻshib beriladigan boʻldi.

Nogironlik va nogironlik pensiyalari tushunchasi

Hozirgi kunda aholining muhtoj qatlamini ijtimoiy himoyasi davlatimiz olib borayotgan ichki siyosatlarining asosiysi bo'lib hisoblanadi. Nogironlar aholining ijtimoiy zaif va yordamga muhtoj tabaqalari qatoriga kirganligi uchun nogironlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofazalashga doir bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilingan¹⁸.

1991-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun mustaqillik e'lon qilingandan keyingi ilk qadam bo'lib, keyinchalik «Fuqarolarni sog'ligini saqlash to'g'risida»gi qonun va boshqa qarorlar va Davlat Dasturlari qabul qilindi.

«Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida «Nogiron» tushunchasini ta'rifi berilgan, unga ko'ra «Jismoniy va aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs, nogiron hisoblanadi.

Shaxsning turmush faoliyatini cheklanganligi uning o'ziga-o'zi xizmat qilish, yurish, yo'lni topa bilish, muloqat qilish, o'z hattiharakatlarini nazorat qilish, shuningdek mehnat bilan shug'ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to'la yoki qisman yo'qotganligida ifodalanadi». Demak, yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, nogironlik ya'ni ishga yaroqsizlik holati turli sabablar asosida kelib chiqishi mumkin. Bu holatlar, aqliy zaiflik, ko'zi ojizligi, harakat organlarining ishlamasligi, kar-soqovligi yoki boshqa sabablar oqibatida o'z-o'zini idora qilishi, harakat qilishini qiyinlashib qolishidan iborat.

Surunkali kasallik bilan qiynalgan yoki anatomik kamchiliklari bo'lgan shaxslarga, shu kasallik va kamchiliklar organizm faoliyatini bo'zib, kasbiy mehnatni bajarishga halaqit beradigan va davolansa ham barqaror tus oladigan hollarda nogironlik belgilanadi.

Mehnat qobiliyatining turg'un darajada buzilishi natijasida bemorning kasbiy mehnatini uzoq muddatga to'xtatishga yoki mehnat sharoitini birmuncha o'zgartirishga olib keladigan holatlar nogironlikni belgilash uchun asos bo'ladi.

¹⁸ Tojiboyeva O.A, Baratova N, G'aniyev Sh.H. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -128 b.

Nogironning ishida bir oz o'zgarish qilish yoki uni yyengillatish malakasini yo'qolishi yoki pasayishiga, yo bo'lmasa mehnat hajmining keskin qisqarishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida nogironlikni oldini olish va nogironlarni reabilitatsiya qilish maqsadida bir qancha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nogironlarni o'qitish, ishga joylashtirish, ularga imtiyozlar belgilash, ularga ijtimoiy yordam berish yo'li bilan ularning kamol topishlari, ijodiy ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish ana shunday olib borilayotgan tadbirlardir.

Mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab, nogironlik 3 guruhga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17- iyuldagi 328-sonli va 1994-yil 23-iyundagi 317-sonli qarorlari asosida nogironlik guruhlari quyidagi tartibda belgilanadi.

Nogironlikni 1-guruhini belgilash uchun organizm faoliyatining buzilishi natijasida nogiron o'ziga o'zi xizmat qila olmasligi va boshqalarning doimiy yordamiga muhtojlik sezishi asos bo'lib hisoblanadi.

1-guruh nogironligi salomatlik holatini vaqtincha yomonlashuvi tufayli tasodifiy, onda-sonda xizmat ko'rsatish yoki parvarishlashga emas, balki har kuni, muntazam xizmat ko'rsatish, yordam berishga muhtoj bo'lib qoladilar.

1-guruh nogironligini belgilash uchun asos birinchidan, mehnat qobiliyatini doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotganligi, boshqalarning yordamiga muhtojligi bo'lsa, ikkinchidan, organizm mutlaqo ishlamasligi ko'rinib turishi va boshqalarning yordamiga muhtojligi yoki yordamiga qaramay maxsus yaratilgan sharoitlarda mehnat faoliyatini ayrim turlariga moslasha olishi mumkinligi (uyda, maxsus sexlarda ishlashi) hisoblanadi.

Nogironlikni 2-guruhini belgilash uchun organizm faoliyatining birmuncha buzilishi, biroq boshqa kishilarning yordamiga muhtojlik sezmaydigan, ammo yo maxsus yaratilgan sharoit tufayli alohida mehnat turlari to'g'ri keladi, yoki boshqa doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotishiga olib keladigan holatlar asos bo'ladi.

Nogironlikni 2-guruhi birinchidan, mehnat qobiliyatini doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotgan, lekin birovlarining yordamiga muhtoj bo‘lmagan shaxslarga, ikkinchidan, mehnat faoliyati ta’siri ostida salomatligi yomonlashganligi tufayli barcha ish turlari uzoq muddatga to‘g‘ri kelmaydigan, uchinchidan og‘ir surunkali kasallik bilan og‘rigan, tayanch-harakat a‘zolarida murakkab nuqsonlari bor, ko‘rish qobiliyati ancha yo‘qolgan, mehnat qilish zararli bo‘lmay, maxsus yaratilgan sharoitlarda ishlashi mumkin bo‘lgan shaxslarga belgilanadi.

3-guruh nogironligi uzluksiz kasallik yoki tanadagi anatomic kamchiliklar tufayli mehnat qobiliyati pasayganda belgilanadi. Bu nogironlik belgilangan shaxslar yengil ishlarda ishlashlari mumkin bo‘lib, ayrim hollarda 3-guruh nogironligi belgilanganda, xodimni yengilroq ishga o‘tkazish zarurligi belgilanadi.

TMEKlar haqidagi Nizomning 41- moddasiga asosan nogironlikni quyidagi sabablari belgilanadi.

Umumiy kasallik — bu nogironlik shaxs organizmining kasallanishi, mehnat faoliyati va burchi bilan bog‘liq bo‘lmagan holdagi baxtsiz hodisa natijasida mayiblanishi, jarohatlanishi, kontuziya olishi natijasida kelib chiqadigan holatdir.

Mehnatda mayiblanish — mehnat faoliyatini bajarish bilan bog‘liq holdagi mayiblanish, jarohatlanish natijasida kelib chiqadi. **Kasb kasalligi** — ishlayotgan kasbining inson salomatligiga ta’siri tufayli vujudga keladi.

Harbiy xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan nogironlik — harbiy xizmat vazifalarni bajarish vaqtidagi yaralanish, kontuziya, shikastlanish, kasallanish natijasida paydo bo‘lib, bu frontdagi nogironlik, urush harakatlarida qatnashgan nogironlik, baynalminal burchini bajarish vaqtidagi nogironlik va boshqalar bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-mayda qabul qilingan 249-sonli qarorining 2- ilovasiga asosan urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar nogironligi deb yuritiladi.

Harbiy xizmatni o‘tayotganda sodir bo‘lgan nogironlik — harbiy xizmatni o‘tash davriga to‘g‘ri kelib, nogironlikni kelib chiqish sababi, kasallanish, mayiblanish, jarohatlanish, yaralanish harbiy xizmat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lmay, armiya nogironlari deb yuritiladi.

Bolalikdan nogironlik — tug‘ma yoki 16 yoshga to‘lguncha bo‘lgan vaqtidagi kasallanish, mayiblanish tufayli nogiron bo‘lib qolganda belgilanadi.

Nogironlik guruhlari va sabablari Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyalari tomonidan belgilanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi va uni tayinlash va hisoblash tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga asosan fuqarolarga boquvchisidan mahrum bo‘lganlarida ijtimoiy ta‘minotdan foydalanish huquqi kafolatlangan bo‘lib, turli sabablar tufayli otaonasidan yoki boquvchisidan mahrum bo‘lgan ishga yaroqsiz, qaramoqda bo‘lgan oila a‘zolari ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi, boquvchilari vafot etishi munosabati bilan to‘xtab qolgan daromad manbayi yashash uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalarinining o‘rnini qisman bo‘lsada qoplanishi zarur. Marhumning qaramog‘ida bo‘lgan ishga yaroqsiz oila a‘zolarini daromadini qoplash yo‘li esa davlat tomonidan O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonunda belgilab qo‘yilganidek, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari tayinlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi - bu vafot etgan marhumning birinchidan, qaramog‘ida bo‘lgan, ya‘ni vafot etgan shaxsdan kun kechirishi uchun zarur bo‘lgan daromad manbayini olib turgan, ikkinchidan, ishga yaroqsiz bo‘lgan, ya‘ni voyaga yetmagan yoki nogiron hisoblangan yohud pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi Qonunning 7- moddasida ko‘rsatilgan yoshga doir pensiya olish yoshiga yetgan (erkaklar 60 yoshga; ayollar 55 yoshga yetgan, lekin zarur mehnat

stajiga ega bo‘lmagan) shaxslarga marhumning ish staji va o‘rtacha oylik ish haqini hisobga olib, beriladigan oylik to‘lovlardir.

O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati xususiyatlaridan biri yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolarni turli moddiy ta‘minlash yo‘llari bilan yashash sharoitlarini yaxshilash va turli ijtimoiy larzalardan muhofaza qilishdir. Shunday muhofaza choralaridan biri boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini belgilash hisoblanadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini tayinlashda aniqlab olinishi kerak bo‘lgan muhim omillardan biri marhumning vafot etish sababini aniqlab olish hisoblanadi. Chunki marhumning vafot etish sababi pensiya tayinlash shartlariga ta’sir ko‘rsatadi. Amaldagi qonunlarga muvofiq quyidagi vafot etish sabablari mavjud:

- a) umumiy kasallik;
- b) mehnatda mayiblanish;
- d) kasb kasalligi tufayli;
- e) harbiy xizmatni bajarish bilan bog‘liq holda
- f) harbiy xizmatni o‘tayotganda.

Umumiy kasallik tufayli vafot etish deganda, shaxsning ish bilan bog‘liq bo‘lmagan holdagi baxtsiz hodisa tufayli yoki kasallanishi oqibatidagi o‘lim hodisasi tushuniladi. Fuqaroning bedarak yo‘qolishi yoki uni o‘lgan deb e‘lon qilinishi sud tomonidan belgilangan bo‘lsa, umumiy kasallik tufayli vafot etish sababiga tenglashtiriladi. Fuqaroni bedarak yuqolishi va uni o‘lgan deb tan olinishi O‘zbekiston Respublikasi FPKga asosan alohida tartib belgilangan bo‘lib, bu holatlarni belgilash uchun sudga ariza berilishi kerak. Unda fuqaroning bedarak yo‘qolganligi, yoki o‘lgan deb e‘lon qilinishi, yoki bedarak yo‘qolishi kishiga o‘lim tahdidi yoki uning ma’lum baxtsiz hodisa tufayli sodir bo‘lganligini taxmin qilishga asos bo‘luvchi holatlar arizachiga nima maqsadda zarurligi ko‘rsatiladi. Sudya ishni sud muhokamasiga tayyorlashda yo‘qolgan shaxs to‘g‘risidagi qanday shaxslar (qarindoshlar, birga ishlaydigan shaxslar) ma’lumot berishi mumkinligini aniqlaydi, shuningdek yo‘qolgan kishi haqida oxirgi yashash va ishlash joyidagi tegishli tashkilot va muassasalardan rasmiy ma’lumotlar to‘playdi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi ta’minoti masalasini hal qilishda fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb sud tomonidan belgilash uchun, fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida 1 yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, fuqaroni o‘lgan deb e‘lon qilish uchun uning yashash joyida 3 yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, bordi-yu u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda

bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida 6 oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, sud tomonidan bedarak yuqolgan yoki o‘lgan deb e’lon qilinishi mumkin. Mehnatda mayiblanish oqibatida vafot etish — bu fuqaroning ish vaqtida, ish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarda, davlat va jamoat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq holda sodir bo‘lishi tushuniladi. Mehnatda mayiblanish oqibatida vafot etish sabablarini aniqlashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi 249-sonli qarori bilan tasdiqlangan 7-ilovada ko‘rsatilgan «Nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli boshlandi deb hisoblanuvchi nogironlik sabablari ro‘yhati» ga asoslanib aniqlanadi.

Kasb kasalligi oqibatida vafot etish fuqaroning ishlagan kasbidagi salomatligiga ta’sir etuvchi omillar ta’siridagi kasbiy zarar tushunilib, bu ham yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan 6-ilovada ko‘rsatilgan «Kasb kasalliklar Ro‘yhati»da ko‘rsatilgan omillarga asoslanib aniqlanadi.

Harbiy xizmatni bajarayotganda vafot etish sababi, harbiy xizmat burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar oqibatida sodir bo‘ladi.

Bu holatni aniqlash uchun 249- sonli qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan «Urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar ro‘yhati»da ko‘rsatilgan sabablar asos bo‘ladi.

Harbiy xizmatni o‘tayotganda vafot etish - bu harbiy xizmatda bo‘lgan davrida, harbiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablar, kasallanish, yaralanish, jarohatlanish, kontuziya olish oqibatida sodir bo‘lishi tushuniladi.

Boquvchisini yuqotganlik pensiyasi tayinlashda yuqoridagi vafot etish sabablarini aniqlab olishdan maqsad, bu holatlarni pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan shartlarga ta’sir ko‘rsatishidir. Marhum umumiy kasallik, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida vafot etgan taqdirda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya

ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonunda ko‘rsatilgan shartlarda, vafot etish sababi harbiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda, tegishli shartlar mavjud bo‘lsa, 1990-yil 28-apreldagi «Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonun

asosida tayinlanadi. Bunda pensiya tayinlash shartlari, marhumning yoshiga nisbatan ish stajining mavjudligi yoki umuman ish stajidan qat'iy nazar tayinlanishiga sabab bo'ladi.

Chunki mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi oqibatida vafot etganda hamda harbiy xizmat bilan bog'liq holda vafot etganda umuman ish stajidan qat'iy nazar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishi mumkin.

Ishga yaroqsizlik deganda, fuqaroning voyaga yetmaganligi, ya'ni 16 yoshga to'lmaganligi (agar o'qiyotgan bo'lsa, 18 yoshga to'lmaganligi), yoshi 18 ga to'lgan bo'lsa, ishga yaroqsizligi ya'ni TMEK tomonidan 1,2,3- guruh nogironi deb belgilanishi va Qonunning 7- moddasida ko'zda tutilgan yoshga (erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga yetganligi) tushuniladi. Ayollar yoki boshqa shaxslar bolalarni go'daklik vaqtida ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshgacha (3 yoshga to'lguncha) boqish bilan mashg'ul bo'lib ishlamasalar, vaqtincha ishga yaroqsiz bo'lib hisoblanishi mumkin, chunki ularni ishlashiga go'dakni tarbiyalash vaqti ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi sabablar mavjud bo'lmagan holda barcha fuqarolar ishga yaroqli hisoblanadilar va o'zlari kun kechirishlari uchun moddiy mablag' topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining marhumning qaromog'ida bo'lgan yaqin qarindoshlari olish huquqiga ega bo'ladilar. Bunday yaqin qarindoshlari doirasi O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunning 19-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, ular quyida ko'rsatilgan.

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralari 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshga to'lgan bo'lsa 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onalari bo'lmasa;

b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti ular 7- moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar;

d) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'iy nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka, uka yoki ukalari, opasingillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

e) buva va buvi — agar qonunga muvofiq ularni boqishi uchun shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

19-moddaga asosan farzandlarga va marhumning 3 yoshga to'lmagan farzandlari uka-singillari va nabiralariga qarab turgan shaxslar agar ishlamasalar marhumning qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'iy nazar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'ladilar.

Farzandlarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanganda, ular ota-onasining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'iy nazar, quyidagi shartlar mavjud bo'lishi kerak:

a) farzandni 16 yoshga to'lmaganligi;

b) agar 16 yoshga to'lgan bo'lsa, o'qishni davom ettirayotganligi;

d) 16 yoshdan katta bo'lib, o'qimasa, 16 yoshga to'lgunicha nogiron bo'lib qolganligi;

e) o'gay farzandlariga yuqoridagi shartlar bilan birga o'zining haqiqiy ota-onasidan aliment olmayotganliklari;

f) 16 yoshga to'lmasdan ishlayotgan farzandlar ham ishlashidan qat'iy nazar, 16 yoshga to'lgunicha boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladilar.

Qayd qilinmagan nikohdan tug'ilgan bolalar ham agar ularning tug'ilganlik guvohnomasi, ota-onaning birgalikdagi otalikni tan olish to'g'risidagi arizasiga asosan yozilgan bo'lsa, ota-onadan biri vafot etgan taqdirda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqini yo'qotmaydi. Agar birgalikda yozilgan ariza bo'lmasa, sud tomonidan otalik maxsus tartibda belgilanib qaror chiqarilgan bo'lsa, bola boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi.

Ayrim hollarda otaning vafotidan keyin ham otalik sud tartibida belgilanishi mumkin.

Sud otalikni tasdiqlovchi holat sifatida birgalikda yashaganlikni va bolani onasi bilan birga yashaganlikni va umumiy xo'jalik yurgizganlikni hisobga olgan holda otalikni tiklash to'g'risida o'z qarorini chiqaradi.

Farzandlikka olingan bolalar ham haqiqiy farzandlar sifatida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladilar.

Agar bolalar ota-onasining o'limi tufayli farzandlikka olingan bo'lsalar, haqiqiy ota-onalari uchun tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasidan mahrum qilinmaydi.

Aka-uka, opa singil va nabiralarga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlash uchun quyidagi shartlar bo'lishi zaruriydir:

- a) marhumning qaramog'ida turganligi;
- b) voyaga yetmaganligi, o'qisa 18 yoshga to'lmagan bo'lishi;
- d) 16 yoshga to'lgan bo'lsa, shu yoshga to'lgunicha nogiron bo'lib qolganligi;
- e) ularning mehnatga qobiliyatli o'z ota- onalarining bo'lmasligi.

Yuqorida ko'rsatilgan oila a'zolarining o'z ota-onalari bo'lib, ishga yaroqsiz bo'lib (nogiron yoki pensioner) hisoblansalar marhum asosiy boquvchisi bo'lgani uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqidan foydalanadilar. O'gay aka-uka, opa-singillar ham yuqoridagi shartlar asosida pensiya olishga haqli bo'ladi.

Ota-ona, er-xotinning boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqi aniqlanayotganda, ularning ishga yaroqsizligi muhim ahamiyatga ega. Ular marhumni vafotidan oldinmi yoki keyinmi ishga yaroqsiz bo'lib qolishi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ta'sir etmaydi.

Agar ular marhumning vafotidan bir necha yil keyin ishga yaroqsiz bo'lib qolsalar ham ularga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanaveradi, bunda faqat er yoki xotinning boshqa nikohga kirmaganligi asos bo'ladi. Agar er yoki xotinga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan bo'lsa, u qayta nikohdan o'tgan holda ham tayinlangan pensiyasini yo'qotmaydi.

Er-xotin nikohda turmagan bo'lsayu, lekin birga yashagan, xo'jalik yuritgan bo'lsa, ularning birgalikda farzandlari bo'lsa, erxotinlik munosabati ularning birining o'limidan keyin sud tartibida belgilanadi.

O'gay ota yoki ona o'gay farzandini 8 yoshga to'lgunicha 5 yil tarbiyalagan bo'lsa haqiqiy ota-onalar qatorida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqidan foydalanadi.

Ota-onalar o'zlarining pensiyasini olayotgan bo'lsalar yoki boshqa farzandlari uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olayotgan bo'lsalar ham marhum uchun boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladilar. Lekin, qonunga muvofiq faqatgina ularning xohishiga qarab bitta pensiya tayinlanadi. Bunda qaysi pensiya turi yuqoriroq miqdorda bo'lishi hisobga olinadi.

Marhumning 3 yoshga to'lmagan bolalarini, uka-singillari, nabiralarini qarash bilan mashg'ul bo'lgan, ota-onadan biri, er yoki xotin, aka-uka, opa-singillardan biri yuqoridagi go'daklarni parvarishlash bilan mashg'ul bo'lib ishlamasalar, bolalar 3 yoshga to'lgunlaricha boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladilar.

Agar ular bola 3 yoshga to'lgunicha bo'lgan davrda ishga joylashsalar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini to'lash to'xtatib qo'yiladi.

Bolalarni qarash bilan ikkita oila a'zosi band bo'lsa boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi ularning faqat bittasigagina tayinlanadi.

Marhumning qaramog'ida bo'lgan bobo yoki buviga pensiya tayinlash uchun ularga ishga yaroqsiz bo'lishlari bilan birga ularni qonun asosida boqishi shart bo'lgan o'z farzandlari, eri (xotini) bo'lmagan taqdirdagina tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olayotgan bolalar 16 yoshga to'lgan bo'lsalar, o'qishni davom ettirayotganliklari haqida ma'lumotnoma taqdim qilishlari shart, aks holda tayinlangan pensiya to'xtatib qo'yiladi. Ular 16 yoshga to'lganlaridan keyin 18 yoshga to'lgunlaricha har yili sentyabr oyida o'qish joyidan ma'lumotnoma taqdim qilishlari shart.

Nogiron hisoblangan ishga yaroqsiz oila a'zolari, nogironlik muddati tugagandan keyin qayta tibbiy ko'rikdan o'tgan hollardagina pensiya to'lovi davom ettiriladi.

Qonunning 20-moddasiga asosan vafot etgan kishining oila a'zolari uning qaramog'ida to'la turgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar va bu yordam ular uchun doimiy hamda asosli manba vazifasini o'tab kelgan bo'lsa, uning qaramog'idagi oila a'zolari hisoblanadi. Bundan xulosa shuki, boquvchidan tasodifiy, muntazam bo'lmagan, shuningdek yashash uchun asosiy manba bo'lib, xizmat qila olmaydigan miqdorda yordam olib turgan shaxslar qaramoqda hisoblanmaydilar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlash uchun pensiya qonunchiliga asosan bir qancha shartlar belgilab qo'yilgan bo'lib bu shartlar quyidagilardan iborat:

- a) boquvchining vafot etganligi;
- b) qaramoqda bo'lgan shaxslarning marhum bilan yaqin qarindoshligi;
- d) qarindosh bo'lgan shaxslarning ishga yaroqsizligi va marhumning qaramog'ida bo'lganligi;
- e) boquvchining vafoti sababini pensiya tayinlanishiga, pensiya miqdoriga va imtiyozlar shartiga ta'sir ko'rsatishi.

Boquvchini vafot etish sabablarini pensiya tayinlash shartiga ta'siri pensiya qonunning 21-moddasida ko'rsatib qo'yilgan.

Boquvchini mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli vafot etishi hollarida, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashda ish staji talab qilinmaydi. Biroq, bu pensiyani miqdorini aniqlashda mavjud bo'lgan ish staji hisobga olinadi. Shuning uchun pensiya tayinlashda agar boquvchini ish staji mavjud bo'lgan hollarda, bu haqda tegishli hujjatlar ham taqdim qilinadi.

Umumiy kasallik bo'yicha boquvchi vafot etgan taqdirda, marhumning vafot etgan kunidagi yoshiga nisbatan qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan ish staji talab qilinadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini hisoblab chiqarish asosida pensiya miqdori aniqlanib, bu miqdor quyidagilardan iborat:

- a) pensiyaning tayanch miqdori, ya’ni pensiyani marhumning o‘rtacha oylik ish haqidan qonunda ko‘rsatilgan miqdorda aniqlash;
- b) pensiyalarni marhumning ortiqcha ish staji uchun oshirish;
- d) ustama haqlar.

2.2. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlanadigan va to‘lanadigan nafaqalar fuqarolarni nafaqalar bilan ta‘minlashda yetakchi o‘rin tutadi. Ijtimoiy ta‘minotning ushbu shakli fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan muhim huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil oktabrdagi «Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida»gi 490-sonli qarori; 2001- yil 16-martda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yhatga olingan «Majburiy badallar va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha ajratmalarni byudjetdan pensiya jamg‘armasiga hisoblab chiqarish va to‘lash tartiblari to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi» hamda «Dehqon xo‘jaligi a‘zolari ijtimoiy sug‘urtasi va ijtimoiy ta‘minoti to‘g‘risida»gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 1-maydagi qarori bilan tasdiqlangan «Keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolar, nogiron bolalar va bolalikdan nogironlarning dafn marosimi uchun bir yo‘la beriladigan nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida» gi nizom va nihoyat, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-may kuni ro‘yhatga olingan «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan va boshqa

bir qator me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Nafaqa huquqiy kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi manbalari, davlat byudjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko'rsatadigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda, yordam xususiyatiga ega bo'ladi hamda fuqaro turmush kechirishining asosiy manbai bo'lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir.

Pensiyalardan farqli o'laroq, nafaqalar vaqtinchalik xususiyatga ega. Ular turmush darajasini ta'minlashning qo'shimcha manbai bo'lib sanaladi va nafaqalar tayinlanishida nafaqa oluchining avvalgi faoliyati va mehnat staji unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Nafaqalar manbalariga ko'ra:

- byudjetdan tashqari pensiya Jamg'armasi hisobidan to'lanadigan nafaqalar;
- davlat va mahalliy byudjet mablag'laridan to'lanadigan nafaqalar;
- aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi Jamg'arma hisobidan to'lanadigan nafaqa;
- boshqa manbalardan to'lanadigan nafaqalarga bo'linadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlanishi nafaqa olishga talabgor fuqaroning (yoki uni oila a'zosini) mehnat faoliyati bilan, unig uchun ish beruvchilar tomonidan yoki bevosita o'zi tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urtasi o'z vaqtida, to'liq va muntazam ravishda to'lab berilganligi bilan bog'liq qilib qo'yilgan. Ya'ni, ijtimoiy sug'urta badallari to'lanmaydigan ish faoliyati bilan shug'ullanish yoki sug'urta badallarini muntazam to'lanmaganligi odatda ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar olish huquqi paydo bo'lmasligiga sabab bo'ladi. «Sug'urta badallari to'lanmagan bo'lsa nafaqa ham tayinlanmaydi» degan tamoyil amal qiladi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 284- moddasi, ikkinchi qismiga ko'ra: «Ish beruvchining davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamaganligi sug'urta

qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi». Korxonalar ixtiyoriy to'lamagan yoki kechiktirgan sug'urta badallari keyinchalik majburiy tarzda undirib olinadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar ijtimoiy sug'urta qilingan xodimlarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda boshqa fuqarolarga ham beriladi. Umumiy qoidaga ko'ra xodim ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida (sinov davrida ham) bo'lgan davrda unga nafaqa olish huquqi paydo bo'lsa beriladi. Ayrim hollarda ishdan bo'shagan xodimlarga ham nafaqa tayinlanishi mumkin.

«Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning 1-bandiga ko'ra, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha quyidagi nafaqalar beriladi:

- a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik uchun;
- b) homiladorlik va tug'ish uchun;
- d) bola tug'ilgani uchun;
- e) qo'shimcha dam olish kuni uchun;
- f) dafn etish marosimi uchun nafaqalar.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paytida beriladigan nafaqa. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paytida beriladigan nafaqa davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha tayinlanadigan nafaqalarning asosiy turi hisoblanadi.

«Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik» tushunchasi qonun hujjatlarida keng ma'noda talqin etiladi va kasallik yoki jarohat olish tufayli mehnat layoqatining vaqtincha yo'qolib qolishi hamda boshqa bir qator holatlarda ifodalanadi.

«Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomning 9-bandiga ko'ra, quyidagi hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi berilishi ko'zda tutilgan:

- a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanishda);
- b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

- d) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- e) karantinda;
- f) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- g) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tushunchasi ancha keng ma'noga ega. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi faqat belgilangan tartibda, berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asosidagina tayinlanishi mumkin.

«Ishlayotgan fuqarolarning va o'quvchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligini O'zbekiston Respublikasi davolash — profilaktika muassasalarida ekspertizadan o'tkazish to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 19-yanvarda ro'yhatga olingan bo'lib, unga asosan nogiron bo'lmasada, muayyan mehnat sharoitiga muhtoj shaxslar uchun tavsiya etiladigan ishlar; uzoq yoki doimiyga mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni aniqlash va ularni tekshirish uchun TMEKlarga yuborish; davolash-dagnostika jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnatga layoqatsizlik sabablarini tahlil qilish va ularni bartarafetish yuzasidan tavsiyalar berish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur Nizomda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlikni ekspertizadan o'tkazishga vakolatli bo'lgan davolash — profilaktika organlari, ularning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari hamda javobgarliklari belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 19-yanvarda «Mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalarini berish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma ro'yhatga olingan. Ushbu yo'riqnoma aytilishicha, mulkchilik shakli, xo'jalik mansubligi, xo'jalik faoliyatining turidan qat'iy nazar, barcha korxona, muassasa, tashkilotlarda yollanib ishlovchi, yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, dehqon xo'jaliklarida mehnat qiluvchi barcha xodimlarning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllardagi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi, tegishli hollarda esa ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

Ishlamayotgan, ish haqi saqlanmagan holdagi ta'tilda bo'lgan shaxslar, harbiy izmatchilar (erkin yollanganlardan tashqari), attestatsiya qilingan Ichki ishlar vazirligi xodimlariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasining berilmasligi ko'zda tutilgan.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi bilan quyidagi holatlar tasdiqlanadi:

- a) xodimning o'z ishidan ozod etilganligi;
- b) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik paytida nafaqa olishga bo'lgan huquqi;
- d) kasallik yuz berganligi fakti hisobga olinganligi.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi o'ringa ma'lumotnoma berilganida uning vositasida:

- a) xodimning ishdan ozod etilganligi;
- b) kasallik yuz berganligi fakti hisobga olinganligi tasdiqlanadi.

Mehnatga qobiliyatsizlikn varaqasi yoki bu haqdagi ma'lumotnoma vakolat berilgan davlat-profilaktika muassasalari tomonidan, istisno tariqasida va maxsus tartibga ko'ra nodavlat tibbiyot muassasalari tomonidan berilishi mumkin bo'ladi. «Mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi va ma'lumotnomasini berish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning 8-bandiga muvofiq, mehnatga layoqatsizlik varaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan hoda kasal bo'lib qolish (jarohat olish);
- b) homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlanganda;
- d) bemor oila a'zosini parvarishlashi zarur bo'lib qolganda;
- e) sanatoriya-kurort (ambulatoriya-kurort)da davolanish paytida;
- f) sil kasalligi yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- g) karantin yuz berganda;
- i) statsionar protez-ortopediya korxonasida prottezlash amalga oshirilganida.

Ambulatoriya-poliklinika sharoitida davolanganda mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi davolovchi vrach tomonidan 5 kungacha muddatga berilishi mumkin.

5 kun o'tgach, har safar 10 kungacha muddatga davolovchi vrach tomonidan bo'lim boshlig'i bilan birgalikda, bo'lim boshlig'i bo'lmaganda esa vrachlar maslahat komissiyasi (VKK) raisi bilan birgalikda bemor sog'ayguniga qadar yoki u tibbiy mehnat ekspert komissiyasiga yuborilguniga qadar uzaytirilishi mumkin.

Uzoq vaqt kasal bo'lgan shaxslar mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kundan boshlab uzog'i bilan 3 oy ichida (bir xil kasallik bilan 12 oy davomida jami bo'lib 4 oy mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolganda) TMEK ga jo'natilishlari lozim.

Alkogolli ichimlik iste'mol qilishi oqibatida kasal bo'lgan yoki jarohat olgan shaxslarga mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi o'rniga ma'lumotnoma beriladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'iy nazar ish haqining 100 foizi miqdorda quyidagilarga to'lanadi:

- a) ishlayotgan Ikkinchi jahon urish qatnashchilariga;
- b) baynalmilal jangchilariga va ularga tegishtirilgan boshqa shaxslarga;
- d) qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshgacha) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;
- e) Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatishga qatnashgan xodimlarga;
- f) Chernobil AESdagi halokat natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklar (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xafli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;
- g) mehnata mayiblanish va kasib kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobilyatsiz bo'lgan xodimlarga.

Boshqa hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasining eng ko'p miqdori o'rtacha oylik ish haqining 80 foizidan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan xodimlardan tashqari, qolgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

- a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 80 foizi miqdorida;
- b) umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga - ish haqining 60 foizi miqdorida.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili bo‘yicha nafaqa ijtimoiy himoyaning turlaridan biri gisoblanadi. «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga asosan ishlayotgan ayollarga homiladorlik va tug‘ish ta’tili uchun nafaqa tayinlash ko‘zda tutilgan.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili bo‘yicha nafaqa ishlayotgan ayollarga homiladorlik davri uchun 70 kalendar kun, tug‘ish davri uchun 56 kalendar kun (tug‘ish og‘ir kechgan hollarda yoki egizak bolalar tug‘ilganda 70 kalendar kun hisobida) jami 126 yoki 140 kun hisobida tayinlanadi. Ushbu ta’til davrida ayolning ish joyi saqlab qolinadi va nafaqa ijtimoiy sug‘urta mablag‘laridan to‘lanadi. «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar ta’yinlash va to‘lash to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqani tayinlash va to‘lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi asos bo‘ladi. Homiladorlik va tug‘ish ta’tili bo‘yicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan davr uchun to‘lanadi.

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili bo‘yicha nafaqa ish haqining 100% miqdorida beriladi.

Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa (suyunchi puli). Bolalarning jamiyat va oila tarbiyasini oqilona olib borishni ta’minlash, ishlovchi onalar ahvolini yengillashtirish maqsadida davlat bola tug‘ilganda bir yo‘la nafaqa berishni ko‘zda tutadi. Bu nafaqani tayinlash va to‘lash tartibi Adliya vazirligining 2002-yil 8-mayda 1136-sonli raqam bilan ro‘yhatga olingan «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom bilan boshqarilib turiladi.

Ishlovchi ayollarga, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki o‘rtamaxsus kasb-hunar kollejlarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinaturada, malaka oshirishga, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga doir kurslar va maktablarda ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiyotgan ayollarga«**Davlat ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida**»gi Nizomga ko‘ra

bola tugʻilganda beriladigan bir martalik nafaqa Oʻzbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

Bolaning onasi ishlamaydigan va oʻqimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda oʻqiydigan otasi yoki ota-ona iʼrnini bosuvchi shaxslarga toʻlanadi. Ishlamaydigan va oʻqimaydigan ota-onalarga bola tugʻilganda nafaqa byudjetdan tashqari pensiya jamgʻarmasi tuman (shahar) boʻlimlari tomonidan tayinlanadi va toʻlanadi.

Farzandlikka olingan bolalarga bola tugʻilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Agarda ayol homiladorlik boʻyicha taʼtil davrida ishdan boʻshab, shu davr mobaynida homilador va tugʻish boʻyicha nafaqa olgan boʻlsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Dafn etish marosimi nafaqasi ham sugʻurta nafaqalardan hisoblanadi. Dafn etish marosimi nafaqasi «Davlat ijtimoiy sugʻurtasi boʻyicha nafaqalarni tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisida»gi Nizomga asosan xodim vafot etganda yoki xodimning qaramogʻida turgan quyidagi oila aʼzolari vafot etgan taqdirda beriladi:

- a) eri (xotini);
- b) 18 yoshga toʻlmagan yoki mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qatʼiy nazar) bolalari, ukalari va singillari;
- d) ota-onalari;
- e) buva va buvilari.

Yashash uchun mustaqil mablagʻ manbayiga ega boʻlgan oila aʼzolari (ish haqi, pensiya, stipendiya oladigan, mehnatga qobiliyatli shaxslar) qaramoqda turgan deb hisoblanmaydilar.

Vafot etgan xodim uchun dafn etish nafaqasi uning oila aʼzolariga yoki dafn marosimini oʻtkazgan shaxslarga beriladi.

Chala tugʻilganda dafn etish nafaqasi berilmaydi.

Dafn etish nafaqasi eng kam oylik ish haqining uch hissasi miqdorida beriladi.

Ish haqiga tuman va joy koeffitsienti belgilangan joylarda noishlab chiqarish tarmoqlari uchun nafaqa miqdori tuman koeffitsientini hisobga olgan holda belgilanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zolari vafot etgan hollarda dafn etish nafaqasi, agar xodimga oxirgi oylik ish haqi to'langaniga ko'pi bilan bir oy o'tgan bo'lsa, nafaqa to'lanadi.

Oliy yoki o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, aspiranturada, klinik ordinaturada yoki hunar-texnika bilim yurtlarida o'quvchi shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zosi vafot etgan hollarda dafn etish nafaqasi mazkur Nizomda xodimlar uchun belgilangan qoidalar va miqdorlarga muvofiq beriladi.

Maktablar, kurslarning tinglovchilari (kadrlar malakasini oshirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha) shuningdek, malaka oshirish institutlari o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etgan hollarda, agar ular kurslar va maktablarga korxonalar tomonidan jo'natilgan va ularda o'qish davrida ish haqi to'liq yoki qisman saqlab qolingan bo'lsa, dafn etish nafaqasi umumiy asoslarda beriladi.

Pensionerga tegishli bo'lgan va o'limi tufayli olinmay qolgan pensiya pullari meros tarkibiga qo'shilmaydi hamda boquvchisini yo'qotganlik tufayli pensiya bilan ta'minlanadigan shaxslar doirasidagi oila a'zolariga to'lanadi. Ota-onalar, er (xotin), shuningdek, pensioner vafot etgan kunida u bilan birga yashab turgan oila a'zolari, agar ular boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanuvchi shaxslar doirasiga kirmasalar, bu pullarni olish huquqiga egadirlar.

Pensioner vafot etgan oyning olinmay qolgan pensiya puli ko'rsatilgan shaxslarga, oila a'zolariga shu oydagi olinmay qolgan kunlarga to'lanadi.

2.3. Byudjet hisobidan to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar.

Fuqarolarni muayyan hollarda ularning mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaganliklari va mehnat staji bor yo'qligidan qat'iy nazar moddiy jihatdan ta'minlash davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ana shu maqsadda byudjet hisobidan ijtimoiy nafaqalar to'lash ko'zda tutilgan bo'lib, ular oilaning moddiy

sharoitlari yoki bolalar parvarish qilinayotganligi va boshqa sabablarga ko'ra ta'yinlanishi hamda to'lanishi mumkin.

Byudjet hisobidan to'lanadigan nafaqalar jumlasiga quyidagi nafaqalar kiradi:

a) ishlamayotgan onalarga bolasini ikki yoshga yetgunicha parvarishlash davrida tayinlanadigan nafaqa;

b) Nogiron bolalar yoki bolalikdan nogiron bo'lgan shahslarga tayinlanadigan nafaqa;

d) 16 yoshgacha bolalari bo'lgan, kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan nafaqa.

Nogiron bolalar yoki bolalikdan nogiron bo'lgan shaxslarga tayinlanadigan nafaqa

Bolalikdan nogironlarga nafaqa tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-iyundagi 319-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Bolalikdan nogironlarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan bolalikdan I va II guruh nogironi deb tan olingan, mehnat stajiga ega bo'lmagan, 16 yoshdan katta bo'lgan shaxslar, shuningdek, nafaqa olish huquqini beruvchi tibbiy ko'rsatmaga ega bo'lgan 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar oylik nafaqani olish huquqiga egadirlar. Nogiron bolalarga nafaqa eng kam yoshga doir pensiyaning 100 foizi miqdorida beriladi.aga nafaqa tayinlashda TMEK ko'rigi ma'lumotnomasidan ko'chirma o'rniga sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan berilgan tibbiy xulosa taqdim qilinadi, chunki 16 yoshga to'lmagan bolalarga nogironlik guruhi belgilanmaydi. Ularga nogironlik Adliya vazirligida 2007-yil 27- iyunda 1695-son bilan ro'yhatga olingan «16 yoshgacha bo'lgan bolalarga nogironlikni tayinlash tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Bolalarni nogiron deb topish ularning qonuniy vakillari - otaonalari, fazandlikka oluvchilari yoki vasiylari (homiylari)ning doimiy yashash joyidagi tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan

vrachlik maslahat komissiyasi tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

VMK tomonidan beriladigan bolalarni nogiron deb topish to'g'risida tibbiy xulosa nogiron bolalarga ijtimoiy nafaqa tayinlashga asos bo'lib hisoblanadi. Ular 16 yoshga to'lgandan keyingina nogironlik guruhini belgilash uchun TMEKka murojaat qilishlari mumkin.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish ariza va zarur hujjatlar topshirilgandan keyin 10 kun ichida ko'rib chiqiladi, tayinlangan nafaqani to'lash oy sayin amalga oshiriladi. Nafaqa oladigan shaxslarga ish haqi, stipendiya, aliment va boshqa daromadlardan qat'iy nazar to'lanadi.

Nogiron bolalarga nafaqa to'lash, eltib berish va jo'natish xarajatlari byudjetdan tashqari pensiya Jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

16 yoshgacha bolalari bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga tayinlanadigan nafaqa

Respublikada 1997-yil 1-yanvardan boshlab bolali oilalarga nafaqa tayinlash va to'lashning yangi tizimi joriy qilindi. Ularning miqdorlari, berish shartlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10- dekabrda Farmonida aks etgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrda «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish choralari to'g'risida»gi 437-sonli qarori bilan tasdiqlangan va 2002-yil 25-yanvarda 33-sonli qarori qayta tahrir qilingan «Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risida»gi Nizom, 16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibini belgilaydi.

Bir nafar bolali oilalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida, ikki nafar bolali oilalarga eng kam oylik ish haqining 100 foizi, uch nafar bolali oilalarga eng kam oylik ish haqining 140 foizi, to'rt va undan ortiq bolali oilalarga eng kam oylik ish haqining 175 foizi miqdorida nafaqa tayinlanadi.

Quyidagilar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa egadirlar:

- a) nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;
- b) ota-onaning ikkalasi ham bo'lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug'ullanishadigan oilalar;
- d) bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
- e) ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, Bandlikka ko'maklashish markazlarida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida tashkil qilingan komissiyalar nafaqalarni tayinlashda va to'lashda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilishlari kerak:

- a) ijtimoiy adolat qoidalariga qat'iy amal qilish;
- b) oshkoralikni ta'minlash;
- d) katta yoshdagi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida boqimandalikka, o'zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo'l qo'ymaslik;
- e) bolalar tarbiyasi uchun oila mas'uliyatini kuchaytirish, ularga jismoniy, aqliy va ma'naviy-ahloqiy rivojlanish uchun zarur shartsharoitlar yaratish;
- f) davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashsiz daromadlarini jiddiy oshirishning aniq imkoniyati mavjud bo'lmagan, kam daromadli oilalarga nafaqalar berish.

Nafaqalarni to'lash quyidagi mablag'lardan amalga oshiriladi:

- a) respublika byudjeti mablag'lari;
- b) mahalliy byudjetlar mablag'lari;
- d) byudjetdan tashqari manbalar.

Nafaqalar to'lash uchun mo'ljallangan mablag'lar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining Xalq bankining mahalliy bo'limlaridagi «Bolalar nafaqalari» maxsus hisoblariga o'tkaziladi.

Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar unga qarab turganlik uchun oylik nafaqa to'lash va tayinlash tartibi.

Bola ikki yoshga to'lgunga qadar unga qarab turganlik uchun oylik nafaqa to'lash va tayinlashning huquqiy asosi bo'lib, 2002-yil 14-martda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan «Ishlaydigan onalarga

bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi va «Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomlar hisoblanadi.

Ushbu Nizomlarga muvofiq, bolaga qarab turganlik nafaqasi qoidaga ko'ra onaga, ona bo'lmagan hollarda otaga, farzandlikka olganga, homiyga yoki farzandlikka olgan boshqa qarindoshlarga (ona o'rniga o'tuvchi) bola 2 yoshga to'lgunga qadar tayinlanadi va to'lanadi.

«Ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, bolaga qarab turganlik nafaqasi ikki yoshga yetmaganbolalar sonidan qat'iy nazar, faqat 1 ta bola uchun oy sayin to'lanadi.

Bunday nafaqa O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqining 200 foizi miqdorida to'lanadi. Bunda nafaqa eng kichik bola ikki yoshga yetguncha beriladi.

Bolaga qarab turganlik nafaqasi bola tug'ilgan oyning keyingi oyidan bola ikki yoshga to'lgan oygacha to'lanadi.

Ishlaydigan (byudjet hisobidan ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'qiyotgan) onalarga bolaga qarab turganlik nafaqasi ish (o'qiyotgan) joyidagi korxona, muassasa, tashkilot tomonidan tayinlanadi.

Byudjet hisobidagi korxona, muassasa, tashkilotlarda ishlovchi ayollarga, shu jumladan, davlat granti asosida ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan onalarga bu nafaqa davlat byudjeti hisobidan to'lanadi.

Nodavlat korxona, tashkilotlarda ishlovchilarga ushbu korxona mablag'laridan bolaga qarab turganlik nafaqasi to'lanadi.

1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni faqat ish staji mavjud bo'lgan fuqarolargagina pensiya tayinlashni ko'zda tutgan. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-iyundagi 319-sonli qarori bilan «Pensiya tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa va

mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi.

Yoshga doir va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash.

Ushbu Nizom pensiya olish huquqiga ega bo'lmagan ish staji yo'q fuqarolarga yoshga doir, nogironlik (bolalikdan nogironlardan tashqari), boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlashni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy ta'minotga doir nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar nafaqaga huquq paydo bo'lgandan keyin istalgan vaqtda, hech qanday vaqt cheklanmagan holda nafaqa tayinlashni so'rab o'zlari yashab turgan joydagi ijtimoiy ta'minot bo'limlariga murojaat qilishlari mumkin.

Ish stajiga ega bo'lmagan va O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan uni boqishga va moddiy ta'minlashga majbur bo'lgan qarindoshi bo'lmagan shaxslarga yoki qarindoshi bo'lsa ham o'zining oilaviy moddiy ahvoli yetarli bo'lmagani uchun moddiy yordam bera olmasa tayinlanadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lmagan ish staji yo'q fuqarolarga:

- a) erkaklarga — 65 yoshga to'lganda;
- b) ayollarga — 60 yoshga to'lganda yoshga doir nafaqa tayinlanadi.

Ijtimoiy ta'minot bo'limlarining tekshiruvi natijasida nafaqaga murojaat qilgan shaxsning qarindoshlari uni boqishga moddiy jihatdan qodir emasligi aniqlansa, nafaqa qarindoshlari bo'lsa ham tayinlanadi. Bu nafaqaning miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalarning miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmonlari asosida o'zgarib turadi.

Nogironlik nafaqasi nogironlik boshlanganda, ya'ni mehnat qobiliyati butunlay yoki uzoq vaqtga yo'qotilganda, faqat I va II guruh nogironlariga tayinlanadi. Fuqarolarning mehnatga qobiliyatlilikni yo'qotish darajasini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat shahar va tuman ijtimoiy ta'minot bo'limlarining yo'llanmalari bo'yicha Tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlovchi yoki yashash uchun boshqa manbaga ega bo'lgan I va II guruh nogironlarga nafaqa tayinlanmaydi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan hollarda, mazkur Nizomga muvofiq, uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari nafaqa olish huquqiga egadirlar. Oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari qatoriga O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonunining 19- moddasida sanab o'tilgan shaxslar kiradilar.

Vafot etgan shaxsning oila a'zolariga beriladigan nafaqaning miqdorlari quyidagicha:

- a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga qobiliyatsiz a'zosiga vafot etgan fuqaro olish huquqiga ega bo'lgan nafaqaning 100 foiz miqdori;
- b) ikkita mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosiga nafaqaning 75 foizi;
- d) bitta mehnatga qobiliyatsiz oila a'zosiga nafaqaning 50 foizi.

Nafaqa miqdori ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga beriladigan nafaqa miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab beriladi.

Nafaqa tayinlash haqidagi ariza arizachi yashab turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga beriladi. Nogironlik yoki yoshga doir nafaqa tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi kerak:

- a) yoshga doir nafaqa tayinlashda arizachining yoshini tasdiqlovchi hujjat (pasportdan yoki tug'ilganlik haqidagi guvohnomadan ko'chirma);
- b) turar joydan ma'lumotnoma, unda barcha oila a'zolari, familiyalari, ismlari, otalarining ismi, tug'ilgan yillari, qarindoshlik darajasi, har bir oila a'zosining yashash mablag'ining manbai, nafaqaga murojaat qilgan shaxs ko'rsatilishi kerak;
- d) arizachining oila a'zolarini birgalikdagi daromadlari haqida ma'lumotnoma;
- e) nogironlik nafaqasi tayinlashda nogironlikni tasdiqlovchi TMEK xulosasi;
- f) boquvchining vafot etganligi to'g'risida guvohnoma va boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlashda bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasidan ko'chirma.

Yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Nafaqa barcha zarur hujjatlar asosli bo'lganda, murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi. Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza barcha zarur hujjatlar bilan tushgan kundan keyin kechi bilan 10 kun ichida ko'rib chiqiladi. Nafaqa tayinlash rad etilgan hollarda ijtimoiy ta'minot bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin 10 kundan kechikmay, arizachining qo'liga yoki pochta orqali rad etish to'g'risida xabarnoma beradi hamda bir vaqtda barcha hujjatlarni qaytaradi. Nafaqa miqdorining o'zgarishiga sabab bo'lgan holatlar yuzaga kelgan hollarda nafaqa oluvchi bu haqda nafaqa tayinlagan ijtimoiy ta'minot bo'limiga 10 kun ichida xabar qilishi kerak. I va II guruh nogironlari va yoshga doir yoki boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanganlar, agar ish haqiga yoki boshqa daromadga ega bo'lsalar, nafaqa to'lash to'xtatiladi. Nafaqa oluvchi to'liq davlat ta'minotiga olingan hollarda (internat uyga, bolalar uyiga va hokazo) nafaqa to'lash to'xtatiladi.

X U L O S A

Islohotlar chuqurlashib, bozor iqtisodiyoti tomon ilgari lab borilgan sari ijtimoiy siyosatning ustivor jihatlar ham, aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham o'zgarib bormoqda. Turli bosqichlarda davlat tomonidan tartibga solish usullari va uslublarining keng vositalaridan foydalanilmoqda. Bular orasida muntazam sur'atda qayta ko'rib turilgan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalarning miqdoridan iborat bevosita pul to'lovlari ham, imtiyozlar, tovon to'lovlari, dotatsiyalar va subsidiyalar sifatidagi bivosita pul to'lovlari ham bor.

Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari ancha kengaytirilishi hamda mas'uliyati oshirilishi lozim. Ular mintaqalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir. Mahalliy organlarning asosiy vazifasi - odamlarga o'z farovonliklarini yuksaltirish maqsadida mehnatqilish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iborat¹⁹.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o'stirish uchun shart-sharoitlar yaratilishi darkor.

Oilani ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ijtimoiy siyosatimizning tamal toshidir. Biz davlatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda, jismonan baquvvat, ma'naviy boy avlodni - mamlakatimizning ertangi kuni egalarini tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga juda kata ahamiyat berilmoqda. Respublikada onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha kuchli kafolatlar yaratilgan. Yosh avlodga ta'lim beri shva unga kasb o'rgatish tizimi shakllanmoqda, oilaning mustahkamlanishiga yordam berishi, unga moddiy yordam ko'rsatishi kerak bo'lgan turli ijtimoiy fondlar tashkil etilgan. So'nggi paytlarda aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga oila orqali beriladigan nafaqalarning yangi tizimi joriy etildi.

¹⁹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 222-bet.

Milliy ruhiyatning va aholi turmush tarzining hususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy jihatdan eng nochor oilalarni mahalla qo'mitalari orqali aniqlash va ularga muayyan moddiy yordam ko'rsatishdan iborat ijtimoiy madad berish shakli joriy etildi va keng qo'llab-quvvatlandi²⁰. Masalaga bunday yondashish aholi orasida ko'p asrlik ildizlarga ega. Tajriba bu usul aholining ijtimoiy nochor, muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga mo'njallangan mablag'lar aynan egalariga tegadigan qilib taqsimlanishiga kafolat berishini ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy faolligining ortishida, hayotimizning ko'plab yetilgan muammolarini hal qilishda nodavlat tuzilmalari katta rol o'ynaydi.

Biz jamiyatimizning tuzilmalarida kuchli ommaviy, ijtimoiy raqobat bo'lmas ekan, hamma darajalarda sub'ektivizm va ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishlari ro'y bermasligiga ishonchli kafolatlar ham bo'lmasligini aniq tushunib olishimiz zarur.

Respublikadagi hozirgi ijtimoiy ahvolni ana shu nuqtai nazardan baholab dadil aytishimiz mumkinki, xalqimiz chekiga tushgan va o'tish davrida muqarrar bo'lgan eng qiyin sinovlar ortda qoldi. Tor fikr yuritish, mafkuraviy mahdudlik bilan bog'liq bo'lgan hamma holatlar o'tmishga aylanmoqda. Mamlakat ichidagina emas, balki uning tashqarisida ham yuz berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik hissi kuchayib bormoqda. Mustaqillik yillarida nafaqat o'zimizning, balki boshqa mamlakatlar misolida to'plangan oz, ammo achchiq tajriba ko'p masalalarda odamlarning ko'zini ochdi, ularni yanada donoroqva sabr-toqatliroq qilib qo'ydi.

Inson ma'naviyatining, yuksak ahloq va madaniyatining, go'zal milliy an'analarni qayta tiklashning muazzam qatlamlari ochildi.

Bugungi kunda aholining moddiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsata oladigan omillar deyarli yo'q. Aksincha, barqarorlashtiruvchi, aholining turmush darajasi o'sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormoqda.

²⁰ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 2000, 39-bet.

Bitiruv malakaviy ishimizdagi barcha bob va bo'limlarda keltirilgan fikr va mulohazalar, berilgan qisqacha xulosalardan kelib chiqib, umumiy xulosa yasashga harakat qildik.

Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbuslari bilan 2007 yil "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilindi. Bu ham ijtimoiy himoyaga muhtoj, boquvchisini yo'qotgan, nogiron, ko'p bolali oilalar sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy siyosat salohiyatini yanada kuchaytirish maqsadini amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Keyingi yillardagi barcha yillar dasturlarida ijtimoiy himoya uchun yu'nalishlar belgilangan.

Zero, ushbu bitiruv malakaviy ishimizning mazmuni va muammolarni o'z yechimini topishida nazariy asos sifatida kelajakda o'z foydasini beradi degan umiddamiz.

Taklif va mulohazalar

Bitiruv malakaviy ishimizning mazmun - mohiyatidan, uning saviyasidan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida zimmaga olingan vazifalarni amalga oshirishda aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish juda muhim ahamiyat kasb etayotganligini alohida ta'kidlash kerak. Ya'nikim, fuqarolarga juda keng huquq va erkinliklar berilgan, ta'bir joiz bo'lsa, ularning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi rag'batlantirilgan taqdirdagina mamlakatimizni yangilash va taraqqiy ettirishga erisha olamiz.
2. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini aniqlab, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida mahalla fuqarolar yig'inlarining faollari tomonidan olib borilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish, moddiy yordamga muhtoj, ko'p bolali oilalarga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim. Aksariyat hollarda bee'tiborlik natijasida haqqoniy tarzda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, shaxslar chetda qolib ketayotganligi achinarli holat, albatta.
3. Mehnat tashkilotlarida ishlovchi mehnatkashlarning ijtimoiy himoyaga muhtojlarini qo'llab-quvvatlashda kasaba uyushmalarining ish faoliyatlarini jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Albatta bu tashkiliy ishlarning ijrosini ta'minlashni mutasaddi davlat organlari zimmasiga topshiriladi.
4. Ta'lim sohasi fidokorlari –o'qituvchilarni rag'batlantirish amalga oshirilishi, har bir o'quv yili yakunida o'qituvchilar ta'til mablag'i va moddiy yordam bir paytda berilishi hamda dam olish maskanlariga dabit tomonidan uyborilishi muayyan me'yorlari ishlab chiqilishi kerak/

Ushbu tavsiyalarimiz bilan O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini ta'minlash borasida olib borilayotgan amaliy ishlar, ijtimoiy siyosat hamda

aholini ijtimoiy himoya qilish yo'lidagi sa'yi harakatlarni yanada takomillashtirish va yuksaltirishga ushbu ilmiy izlanishimiz bilan o'z hissamizni qo'sha olgan bo'lsak o'zimizni maqsadga erishgan deb hisoblar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'zga xos yo'li. T.: «O'zbekiston», 1993 y.
2. Karimov I.A. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: 1995 y.
3. Karimov I.A. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T.: «O'zbekiston», 1996 y.
4. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997 y.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T.: «O'zbekiston», 1997 y.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T.: «O'zbekiston», 1997 y.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. T.: «O'zbekiston», 1998 y.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: «O'zbekiston», 1998 y.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XX asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999 y.
10. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 2000, 39-bet
11. Karimov I. A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: «O'zbekiston», 2009 y.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi", 2010 y.
14. Karimov I. A. O'zbekiston respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. O'zbekiston ovozi, 2010 yil, 1 sentyabr.

15. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Xalq so'zi, 2011 yil, 22 yanvar.
16. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir //Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi //Xalq so'zi, 2013 yil 7 dekabr
17. Karimov I.A. Tinchlik va ahillik-mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir //O'zbekiston ovozi, 2014 yil 10 may.

Normativ huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiton», 2013 y
 2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2013 y.
 3. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun. T., 2012 йил, 20-бет.
 4. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonun
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni. 1991-yil 18-noyabr.
 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 25-yanvardagi «Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida»gi Farmoni
 7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badallar to'lash tartibi»
 8. **«Davlat ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash vato'lash tartibi to'g'risida»gi Nizom Adliya vazirligining 2002-yil 8-mayda 1136-sonli raqam bilan ro'yhatga olingan**
Maxsus adabiyotlar.
-
1. Abdurahmonov tahriri ostida Mehnat va iqtisod sotsiologiyasi. T.: 2001 y.
 2. Gofurov A. Iqtisodiy nazariya. O'quv qo'llanma. FarDU, 1995 y.

3. Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002 y.
4. Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001 y.
5. Ergashev.I. “O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”.
-Toshkent. 2005 y.
6. Xolbekov A., Ildirov U. Sotsiologiya. Lug'at. - T.: Ibn Sino, 1999 y.
7. Mehnat va kasb ssiologiyasi fanidan ma'ruzalar matni. N.: 2010 y.
8. Inson va jamiyat kursi bo'yicha o'quv qo'llanma. T.: 1999 y.
9. Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet;
10. Tursunov Y. Ijtimoiy ta'minot huquqi. (Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma). - T: «O'qituvchi» NMIU, 2005- y. B-6.
11. Ergashev T. Bozor iqtisodiyoti. T.: «O'qituvchi», 2002, 112-bet.
12. Ergashev T, Ismatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T.: «Sharq», 2001, 22-bet.
13. Tojiboyeva O.A, Baratova N, G'aniyev Sh.H. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. Aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010. -128 b.

. Internet saytlari:

- www.ziyonet.uz.
- www.google.uz.
- www.istedod.uz
- www.ppf.uni.udm.ru
- www.migration.uz.